



O'zbekiston Respublikasi
Ichki ishlar vazirligi nashri

Vatanga va xalqqa sadoqat bilan xizmat qilish – oliy burchimiz!

2024-yil

1-avgust

payshanba

№ 31 (4673)

Postda Ha nocty

Gazeta 1930-yil 12-maydan chiqa boshlagan / Web-site: www.postda.uz / E-mail: info@postda.uz

MUSTAQILLIK TENGDOHLARI

SEN BILAN BAROBAR YUKSALDIM, VATAN!

Ulug'larning ruhi qo'llagay bizni,
Asrab-avaylasak hur yurtimizni,
Shaxt ila bosaylik, munosib izni,
Qo'lni-qo'lga berib, hozir, shu onda,
Ko'ztumor bo'laylik, O'zbekistonga!



Suratda: (chapdan) Sirdaryo viloyati Guliston shahar IIB HPB XQMB katta inspektori, leytenant Surayyo Po'latova, Guliston tumani IIB HPB profilaktika inspektori, katta leytenant Jasurjon Sohibjonov hamda viloyat IIB psixolog-inspektori, kapitan Latofat Po'latovalar.

ODAM SAVDOSI – ASR MUAMMOSI

MUHOKAMADA – DOLZARB MASALALAR

Joriy yilning 29-iyul kuni «Odam savdosiga qarshi kurashish oyligi» doirasida o'tkazilgan axborot kampaniyasi yakunlariga, shuningdek, barcha manfaatdor tomonlarning kelgusidagi hamkorligining asosiy yo'nalishlari muhokamasiga bag'ishlangan yakuniy konferensiya bo'lib o'tdi.

«Odam savdosiga qarshi kurashish: milliy yondashuvlar va xalqaro standartlar» mavzusidagi ushbu tadbirda Odam savdosiga qarshi kurashish masalalari bo'yicha kichik komissiya raisi – O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vaziri, general-leytenant Po'lat Bobojonov, Oliy Majlis Senatining Xalqaro munosabatlar, tashqi iqtisodiy aloqalar, xorijiy investitsiyalar va turizm masalalari qo'mitasi raisi Ravshanbek Alimov, Xalqaro migratsiya tashkilotining Markaziy Osiyo bo'yicha mintaqaviy koordinatori Zeynal Gadjiyev, YEXHTning O'zbekistondagi loyiha koordinatori – Elchi Antti Karttunen, shuningdek, milliy komissiya a'zolari, diplomatik korpus, fuqarolik jamiyati institutlari, nodavlat notijo-

rat tashkilotlar, xalqaro tashkilotlar vakillari hamda huquqni muhofaza qiluvchi organlarning mas'ullari qatnashdilar.

Anjumandan ko'zda tutilgan asosiy maqsad erishilgan natijalarni baholash, tajriba almashish, shuningdek, milliy va xalqaro miqyosda odam savdosiga qarshi kurashishni kuchaytirish bo'yicha chora-tadbirlarni ishlab chiqishdan iborat edi. Mazkur jinoyatning oldini olish va unga qarshi kurashishda davlat organlari, xalqaro tashkilotlar va nodavlat-notijorat tashkilotlar o'rtasidagi hamkorlikni yanada takomillashtirishga alohida e'tibor qaratildi.

Tadbirda «O'zbekistonda odam savdosiga qarshi kurashish bo'yicha milliy amaliyotlar va ularning tahlili»



hamda «Odam savdosidan jabrlanganlarni rehabilitatsiya va reintegratsiya qilish: hozirgi holat va xalqaro standartlar» kabi mavzular alohida sessiyalarda ko'rib chiqilib, keng muhokama qilindi.

Tadbir so'ngida ishtirokchilar «Odam savdosiga qarshi kurashish: milliy yondashuvlar va xalqaro standartlar» konferensiyasi yakunlariga bag'ishlangan Kommyunike qabul qildilar.

YANGI O'ZBEKISTON — YANGI ICHKI ISHLAR ORGANLARI

Buxoro viloyati



YANGICHA ISH USLUBI

faoliyatimizni takomillashtirdi



Davlat rahbari viloyatimizga amaliy tashrifi chog'ida hududda jamoat xavfsizligini ta'minlash, jinoyatchilikning barvaqt oldini olish masalasiga e'tibor qaratib, Namangan shahrini jinoyatdan xoli hududga aylantirish bo'yicha Namangan tajribasini yaratish borasida bir qator vazifalarni belgilab bergandi.

Kriminogen vaziyati og'ir hamda fuqarolar tomonidan ko'plab murojaatlar tushayotgan 67 ta mahalla 15 ta mikrohududga bo'linib, ularda yangicha ishlash mexanizmlariga asoslangan mahalla huquq-tartibot maskanlari faoliyati takomillashtirildi. Huquq-tartibot maskani rahbari sifatida profilaktika bosh inspektori, har bir huquq-tartibot maskani shtat tuzilmasiga patrul-post yo'l-patrul xizmati inspektori va profilaktika kichik inspektori lavozimlari kiritildi.

«Fidokor yoshlar» guruhlarini jadallashtirish maqsadida ichki ishlar organlari ta'lim muassasalari nomzodlariga huquq-tartibot maskanida 100 soatlik patrullik amaliyotini o'tash bo'yicha majburiy tartib joriy etildi.

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, yangi huquq-tartibot maskanlari tashkil etilishi natijasida bir qator ijobiy natijalarga erishildi. Jumladan, mazkur hududlarda yagona boshqaruv va nazorat tizimi samara-



dorligi oshdi. Fuqarolar xavfsizligi va osoyishtaligini ta'minlash, jinoyat va huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olishda davlat organlari va jamoatchilik vakillari bilan hamkorlik sezilarli darajada kuchaydi. Patrul-post, yo'l

harakati xizmati hamda surishtiruv guruhlarining huquq-tartibot maskanlariga biriktirilishi hamda ularni aynan biriktirilgan mahalla hududida xizmat tashkil etishi profilaktika inspektorlariga qulayliklar yaratib, ish samaradorligi ortdi. Murojaatlarga

Amalga oshirilgan tezkor qidiruv va profilaktik tadbirlar natijasida shahar hududida 2024-yil 6 oy davomida jami jinoyatlar 14,2 foizga, oldini olish mumkin bo'lgan jinoyatlar 19,9 fozga, mahalla hududida oldini olish mumkin bo'lgan jinoyatlar 26,8 foizga kamaydi, aniqlanadigan jinoyatlar 2,5 foizga yaxshilandi. Tan jarohati yetkazish, o'g'irlik bosqinchilik, firibgarlik, bezorilik, yo'l-transport hodisalari keskin kamayganini ko'rish mumkin. Namangan shahar hududida jinoyatlarining kamayishi viloyat hududida ham bu boradagi statistikaning kamayishiga o'z ta'sirini ko'rsatdi. Xususan, jinoyatlar 11,9 foizga, oldini olish mumkin bo'lgan jinoyatlar 19,4 foizga, mahalla hududida oldini olish mumkin bo'lgan jinoyatlar 30,6 foizga kamaydi, aniqlanadigan jinoyatlar 7,5 foizga yaxshilandi.

Abdulaziz UMRZAKOV,
Namangan viloyati IIB JXX
boshlig'ining o'rinbosari –
Huquqbuzarliklar profilaktikasi
boshqarmasi boshlig'i,
podpolkovnik.





Наши корреспонденты сообщают



■ Хорезмская область

ШАГИ В ПРОФЕССИЮ

Курсанты Академии МВД Республики Узбекистан закончили практику в подразделениях органов внутренних дел.



– Проходил практику в составе группы кадрового обеспечения Ургенчского районного отдела внутренних дел, – говорит курсант 2-го курса Асадбек Ибрагимов. – Большое внимание уделялось вопросам психологического обеспечения деятельности сотрудников, тонкости которого стремился освоить. Непосредственно участвовал в профилактических мероприятиях, проводимых сотрудниками органов внутренних дел. Обретенные навыки станут хорошей базой в будущей службе.

За тем, как проходили практику курсанты, наблюдали руководство областного УВД и педагоги Академии. После завершения программы курсанты прошли тестовые испытания. Принявшие активное участие в раннем предупреждении правонарушений удостоились благодарности руководства областного УВД.

На снимке: Асадбек Ибрагимов со старшим инспектором группы кадрового обеспечения Ургенчского РОВД майором Жахонгиром Рузимовым.

★ Аспект профилактики

– О необходимости соблюдения техники безопасности, недопустимости проявления беспечности шла речь в ходе встречи в филиале по технической и технологической подготовке, ремонту пассажирских вагонов (ВЧД-2), с машинистами и путейцами, – говорит старший инспектор группы профилактики правонарушений отделения обеспечения безопасности на станции «Тукимачи» старший лейтенант Жонибек Номозов. – Отдельное направление – работа с жителями махаллей, расположенных близ путей. В зону нашей ответственности входят махалли Олтин водий, Биродарлик, Заминобод, Кушбеги, Башлык. Недавно состоялась беседа в махалле Биродарлик,



Сотрудники подразделений Управления обеспечения безопасности на железнодорожном транспорте Ташкентского региона во взаимодействии с работниками АО «Узбекистон темир йўллари» осуществляют профилактическую деятельность в целях предупреждения несчастных случаев.

■ Джизакская область



НА ПУТИ К ИСПРАВЛЕНИЮ

В колонии-поселении № 29 действуют цеха по изготовлению столов и стульев из ротанга, окон и дверей из алюминиевого профиля, чулочно-носочных, трикотажных изделий, работает сварочный цех, сооружена своя теплица.

За минувший период года цех по выпуску окон и дверей получил заказ на изготовление продукции на 245,6 миллиона сумов, поставил продукцию на 130,6 миллиона сумов. 14 работников трикотажного цеха выполняют заказ на 357 миллионов 550 тысяч сумов. На сегодня поставлено продукции на 230 миллионов 325 тысяч сумов.

Объем продукции, выданной чулочно-носочным цехом, составляет 142,3 миллиона сумов, сварочный цех выполнил заказ на 148 миллионов сумов. В теплице получают по два урожая огурцов в год. Совокупный объем производств колонии, расположенной

в городе Джизаке, достиг 1 миллиарда 815 тысяч сумов. Подобный подход позволил обеспечить занятость всех осужденных.

В колонии-поселении № 30 в Зафарabadском районе также принимаются действенные меры по трудоустройству контингента. Здесь налажено разведение кур. Доставлены 1 280 голов птицы яйценосной породы. На поля махалли Чимкурбан подается поливная вода с помощью вакуумной установки, что позволяет эффективно вести земледелие. Приобщение к труду осужденных содействует их социализации и трудоустройству после отбытия срока наказания.



СОБЛЮДАЙТЕ ПРАВИЛА!

где проживает 2,5 тысячи человек. Призвали взрослых быть внимательными к детям: нередко случаи, когда подростки при отсутствии должного контроля забираются на крыши вагонов, бродят по путям... Железная дорога – не место для игр. Такие «развлечения» могут закончиться печально. Кроме того, в махалле Заминобод разъяснили, что нельзя осуществлять выпас скота в полосе отвода железной дороги. Участникам розданы буклеты о соблюдении правил, об ответственности за их нарушение.



★ Яқин тарих саҳифаларида

У 1934 йили Тожикистоннинг ҳозирги Суғд вилоятида дунёга келган. Ота-онаси ғоят маърифатли инсонлар бўлиб, фарзандларини ҳам билим олишга, китоб ўқишга қизиқтириб тарбиялашди. Наби Раҳимовнинг болалиги Иккинчи жаҳон уруши даврига тўғри келди. Ижтимоий-моддий қийинчиликлар уни сабрли, чидамли бўлишга ўргатди.

Н. Раҳимов 1955 йили Панжикент педагогика билим юртини тамомлади. Унда болаларга билим бериш, уларни ортидан эргаштириш қобилияти кучли эди. Педагогик билан шуғулланаётиб, кутилмаганда ички ишлар органлари соҳасига қизиқиб қолди. Билимли-заковатли, жисмонан бақувват, бўйчан ва шижоатга тўла бу ёш йигитни хизматга қабул қилишди.

1961 йилдан Тожикистоннинг Суғд вилояти Панжикент туманида участка нозири вазифасида тизимдаги фаолиятини бошлади. Кейинроқ Навоий вилоятининг Томди тумани ИИБ жиноят қидирув гуруҳида катта инспектор лавозимида хизматни давом эттирди.

1975 йилда ИИБ Тошкент олий милиция мактабини муваффақиятли якунлагач, интилувчанлиги туфайли Наби Раҳимовнинг лавозими ҳам, унвони ҳам ортиб бораверди. У 1985 йилгача Зарафшон шаҳар Ички ишлар бўлими бошлиғи лавозимида фаолият олиб борди. Ана шу даврда вилоят ИИБ раҳбари Тўра Ҳайитов устидан кўзғатилган жиноят иши бўйича терговга жалб этилди.

«Пахта иши», «Ўзбек иши» ҳақида гап борганда, минглаб юртдошларимизнинг қийинчиликлар ва азоб-уқубатга тўла, руҳий ҳамда жисмоний тазйиқ остидаги ҳаёти кўз ўнгимизда гавдаланади. Гарчи бу қатағондан жабр чекканларнинг кўпчилиги ҳозирги кунга келиб оламдан ўтган бўлса-да, уларнинг яқинлари ва фарзандлари машъум воқеаларни ҳеч қачон унутмайди. Мана шундай адолатсизликлардан жабр чекканлардан бири ўша йиллари Зарафшон шаҳар ИИБга раҳбарлик қилган Наби Раҳимовдир.

– Наби Раҳимовни 1979 йилда Зарафшон шаҳрида йўл-патруль хизмати инспектори вазифасида ишлаётган пайтимдан танирдим. У киши ўша пайтлар шаҳар ИИБ бошлиғининг ўринбосари эдилар. Кейинчалик Зарафшон шаҳар ИИБ раҳбари бўлдилар. Хизмат борасида қаттиққўл, талабчан бўлсалар-да, ҳар бир ходимдан ҳол сўраб, ғамхўрлик ҳам кўрсатардилар. Биз каби ёш ходимларга «ўғлим» деб мурожаат қилардилар.

Кейинчалик шахсий таркиб орасида «Подполковник Наби Раҳимовнинг қинғир ишлари бор экан», деган миш-мишлар тарқала бошлади. Баъзилар бир гапга ўн та кўшиб ғийбат қилсалар, уни яқиндан билганлар бу гаплар бўҳтон эканлигини сезиб, бош чайқаб кўйишарди. Аммо гдлянчиларга қарши чиқишга ҳеч кимнинг юраги бетламасди. Наби Раҳимовга бу кўргуликлар огирлик қилди. Охири лавозимидан бўшатилганини, хаста

бўлиб қолганини эшитдик, – дейди истеъфодаги майор Замон Очилов.

Тергов жараёни бир неча йил давомида уйдирма ва тўхматларга тўла руҳий ҳамда жисмоний тазйиқлар остида кечди. Аҳвол шу даражага бориб етдики, ҳатто Наби Раҳимов миллати тожик бўлгани учун камситилди ҳам. Оила аъзоларининг ҳам тинчи бузилди. Бундай бедодликлардан юрагини олдириб қўйган подполковник Наби Раҳимов навбатдаги унвонни олиш учун вилоят ИИБ бошлиғига пора берганлиги тўғрисида ёлғон кўрсатма беришга мажбур бўлди.

– Отамнинг тушкунликда кечган 2-3 йиллик ҳаёти уни огир хасталикка дучор қилди – қандли диабет ва юрак етишмовчилиги касалликларига чалиниб қолди. Бу ўз навбатида оиламизнинг турмуш шароити огирлашишига сабаб бўлди. Касалманд синглим Майяни ҳам ўз вақтида даволата олмадик. Гдлянчиларнинг қатағон сиёсати сабаб отамнинг



кўнгли касбидан совиди. 1985 йил турли важлар билан лавозимидан озод этилганидан сўнг, бошқа соҳавий хизматларда фаолият олиб борди, – дейди унинг ўғли Фарҳод Раҳимов.

Махсус комиссия томонидан Наби Раҳимовнинг иши қайта кўрилиб, адолатсизлик қурбони эканлиги тан олинганга қарамай, энди хасталик сабаб у хизматни давом эттиролмади. 1989 йилда касаллиги сабабли пенсияга чиққан Наби Раҳимов 1995 йил 6 апрель куни 61 ёшида вафот этди.

Маҳлиё ХОЛОВА,
ўз мухбиримиз.

Навоий вилояти.

★ Жазони ижро этиш тизимида

КАСАЛХОНАДА ЯНГИ БЎЛИНМА

Яқинда 23-сонли маҳкумлар учун ихтисослашган касалхона таркибида 50 ўринли аёллар бўлинмаси ташкил этилиб, замонавий тиббий асбоб-ускуналар билан жиҳозланди.

Эндиликда 21-сон ЖИЭҚда жазо муддатини ўтаётган маҳкумларга ҳам соғлиқни сақлаш тизимининг етакчи мутахассислари билан ҳамкорликда ушбу касалхонада ихтисослашган малакали тиббий ёрдам кўрсатилади. Мазкур касалхонада янги ташкил этилган бўлинманинг очилиш маросими ўтказилди. Унда Олий Мажлиснинг Инсон ҳуқуқлари бўйича вакили (Омбудсман), Инсон ҳуқуқлари бўйича Ўзбекистон Республикаси Миллий маркази, Ўзбекистон Республикаси Бош прокуратураси вакиллари ҳамда ИИБ ҳузуридаги Жазони ижро этиш департаменти раҳбарияти иштирок этишди ҳамда у ерда яратилган шарт-шароитлар билан танишишди.

Шаҳризод ШОКИРОВ,
капитан.

**Асосий Қонуни-
мизнинг 28-моддаси олтинчи
қисмига кўра, озодликдан маҳрум
этилган шахслар ўзига нисбатан инсоний
муомалада бўлиниши ҳамда инсон шахси-
га хос бўлган шаъни ва қадр-қиммати ҳурмат
қилиниши ҳуқуқига эга. Ўзбекистон Республи-
каси Жиноят-ижроия кодексининг 9-моддаси-
да эса маҳкумларнинг соғлиғини сақлаш, шу
жумладан тиббий хулосага кўра амбулатория
поликлиника ва стационар шароит-
да тиббий ёрдам олиш ҳуқуқи
кафолатланган.**



■ Бухарская область

ДОСТИГНУТЫ ВЕСОМЫЕ РЕЗУЛЬТАТЫ

В Гиждуванском районе под началом ответственных работников изучаются системные проблемы в махаллях, удовлетворяются насущные запросы граждан, решаются вопросы предупреждения преступности, социально-экономического развития.

Совместно с махаллинскими семерками составлены в разрезе сходов граждан списки из 5 882 лиц 14 категорий, склонных к совершению правонарушений. Они переданы руководителям секторов и иным должностным лицам для проведения профилактической работы.

Особое внимание уделяется неблагополучным семьям. С привлечением представителей духовенства, организаций-партнеров проводятся разъяснительные беседы. Устанавливаются и устраняются факторы, способствующие раздорам. При необходимости принимаются меры по принудительному лечению граждан, пристрастившихся к употреблению спиртных напитков, с по-

следующим их трудоустройством. В целях сокращения бедности нуждающимся семьям оказывается содействие в открытии бизнеса.

В ходе мероприятия установлены административные правонарушения, способные спровоцировать преступления. По 61 правонарушению применены административные аресты и взысканы штрафы в размере 97 миллионов сумов.

Диагностировано 12 граждан, страдающих алкоголизмом, и 23 человека с психическими заболеваниями. Они помещены в профильные лечебные учреждения. С ранее судимыми гражданами проведены профилактические беседы. Установлен административный надзор за 23



жителями. В пяти случаях оформлены протоколы об административной ответственности в отношении родителей, позволивших несовершеннолетним детям находиться в ночных развлекательных заведениях. В

ходе проверки соблюдения лицами, находящимися под надзором, предписанных ограничений, в отношении 11 граждан применены меры административной ответственности, в отношении одного лица возбуждено уголовное дело.

Организовываются профилактические мероприятия по предупреждению мошенничества, краж, киберпреступности, дорожно-транспортных происшествий.

Совместно с заинтересованными организациями проведены адресные профилактические мероприятия с супружескими парами, находящимися на грани развода. 56 жертвам насилия выданы охранные ордера. Привлечены к ответственности трое граждан, не соблюдавших требования охрannого ордера.

В ходе профилактического рейда выявлены факты незаконного ношения и хранения холодного оружия. По ним приняты соответствующие меры.

Кроме того, задержаны семь лиц, разыскиваемых судебными и следственными органами, выявлено 5 фактов незаконного оборота наркотических средств.

В ходе профилактического мероприятия «Безопасная территория» в людных местах района, на предприятиях и организациях, объектах торговли и сферы услуг установлены 177 камер видеонаблюдения, подключенные к опорным пунктам органов внутренних дел. Благодаря этим мерам удалось существенно снизить уровень преступности.

Шухрат ЖАЛОЛОВ,
подполковник.



НОВЫЙ УЗБЕКИСТАН – НОВЫЕ СООРУЖЕНИЯ



г. Наманган

Технологический парк программных
продуктов информационных технологий

MANFAATLAR TO'QNASHUVI – TARAQQIYOT KUSHANDASI

Manfaatlar to'qnashuvi korrupsiya kabi bir qator salbiy oqibatlariga, ya'ni fuqarolarning konstitutsiyaviy huquqlari buzilishiga, davlat va davlat organlarining obro'siga putur yetkazilishiga, davlatga moddiy zarar yetkazilishiga, bir tomonlama ustunlik berilishi va raqobatning yo'qolishiga hamda uchinchi shaxslarga zarar yetkazilishiga olib keladi.

Manfaatlar to'qnashuvi korrupsiyaviy jinoyatlar sodir etilishining bir bosqichi bo'lib, quyidagicha harakatlanadi: 1) g'ayriijtimoiy (asotsial) harakatlar; 2) kasbiy qoidalarning buzilishi; 3) kasb odobi talablarining buzilishi; 4) manfaatlar to'qnashuvi; 5) korrupsiyaviy holat; 6) korrupsiyaviy jinoyat.

Manfaatlar to'qnashuvining taraqqiyotga to'sqinlik qiluvchi quyidagi asosiy shakllari mavjud: nepotizm, lobbizm, favoritizm, pantuflyaj, kronizm, byurokratik rasmiyatchilik.

O'zbekiston Respublikasining «Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida»gi qonunining 3-moddasida manfaatlar to'qnashuvi – bu shaxsiy (bevosita yoki bilvosita) manfaatdorlik shaxsning mansab yoki xizmat majburiyatlarini lozim darajada bajarishiga ta'sir ko'rsatayotgan yoxud ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan hamda shaxsiy manfaatdorlik bilan fuqarolarning, tashkilotlarning, jamiyatning yoki davlatning huquqlari va qonuniy manfaatlarini o'rtasida qarama-qarshilik yuzaga kelayotgan yoki yuzaga kelishi mumkin bo'lgan vaziyat, deb ta'riflangan.

Manfaatlar to'qnashuvi – ishonib topshirilgan majburiyat va majburiyat egasining shaxsiy manfaatlarini o'rtasidagi ziddiyat. U korrupsiyaning yuzaga kelishi uchun imkoniyatlar yaratganligi sababli, oldi olinishi yoki boshqarilishi kerak.

Ta'kidlash kerakki, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 6-iyuldagi «Korrupsiyaga qarshi murosasiz munosabatda bo'lish muhitini yaratish, davlat va jamiyat boshqaruvida korrupsiyaviy omillarni keskin kamaytirish va bunda jamoatchilik ishtirokini kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi

farmonining qabul qilinishi mam-lakatimizda korrupsiya holatlari-ni har qanday ko'rinishlariga nisbatan murosasiz munosabat-da bo'lish va unga qarshi ayovsiz kurash olib borishning yangi bosqichi bo'ldi.

Farmonda korrupsiyaga qarshi kurashishning samaradorligini oshirish maqsadida ilg'or xalqaro standartlarga asoslanib uning normativ-huquqiy bazasini takomillashtirish vazifalari belgilandi.

2024-yilning 5-iyunida O'zbekiston Respublikasining «Manfaatlar to'qnashuvi to'g'risida»gi qonuni hamda Prezidentimizning «O'zbekiston Respublikasining «Manfaatlar to'qnashuvi to'g'risida»gi qonuni ijrosini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarori e'lon qilindi.

Ushbu qonun davlat organi-ni yoki boshqa tashkilotning xodimi, manfaatlar to'qnashuvi, manfaatlar to'qnashuvini tartibga solish bo'yicha maxsus bo'linma, shaxsiy manfaatdorlik, yaqin qarindoshlar tushunchalarining ma'nosi oydinlashtirib berilgani bilan ahamiyatlidir. Unda man-faatlar to'qnashuvi bilan bog'liq

munosabatlarni tartibga solish-ni asosiy prinsiplari belgilandi.

Qayd etish kerakki, O'zbekis-ton Respublikasining «Korrup-siyaga qarshi kurashish to'g'ri-sida»gi qonunida ko'rsatilgan manfaatlar to'qnashuvi tushun-chasi tahlil etayotgan qonuni-mizda yangi tahrirda kengaytirildi va tegishli o'zgartishlar kiritildi. Ya'ni, manfaatlar to'qnashuvi – shaxsning shaxsiy (bevosita yoki bilvosita) manfaatdorligi uning o'z lavozim yoki xizmat majburi-yatlarini lozim darajada bajarishi-ga ta'sir ko'rsatayotgan yoxud ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan hamda shaxsiy manfaatdorlik bilan fuqarolarning, tashkilotlar-ni, jamiyatning yoki davlatning huquqlari, qonuniy manfaatlarini o'rtasida qarama-qarshilik yu-zaga kelayotgan (mavjud man-faatlar to'qnashuvi) yoki yuzaga kelishi mumkin bo'lgan (ehtimoliy manfaatlar to'qnashuvi) vaziyat deb belgilandi.

Mazkur qonunga muvofiq, davlat organining yoki boshqa tashkilotning xodimi o'z lavozim majburiyatlarini yoki xizmat va-kolatlarini vijdonan bajarishi va ularning bajarilishiga ta'sir ko'r-satadigan yoki ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan o'z shaxsiy man-faatlari bilan bog'liq har qanday harakatlardan o'zini tiyishi lozim.

Shu bilan birga, mavjud man-faatlar to'qnashuvi yuzaga kelgan taqdirda, tezda o'zining bevosita rahbarini yoki maxsus bo'linmani xabardor qilishi, o'zining bevo-sita bo'ysunuvidagi xodimlarni yoki boshqa xodimlarni o'zining shaxsiy manfaatlarini ko'zlovchi harakatlarga (harakatsizlikka) majburlamasligi, shuningdek, boshqa xodimlarga nisbatan

o'ziga ma'lum bo'lgan manfaat-lar to'qnashuvi hollari to'g'risida xabar berishi shart.

Qonunning qabul qilinishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksiga yangi 193⁴-modda kiritilib, manfaatlar to'qnashuvi to'g'risidagi qonunchilik talablarini bajarmaganligi uchun javobgarlik belgilandi.

Ushbu moddada manfaatlar to'qnashuvi to'g'risidagi qonun-chilikda nazarda tutilgan manfa-atlar to'qnashuvi mavjudligi haqi-da davlat organining yoki boshqa tashkilotning mansabdor shaxsi yoki xodimi tomonidan xabar bermaganligi, shuningdek, man-sabdor shaxsiga ma'lum bo'lib qolgan, manfaatlar to'qnashuvi to'g'risidagi qonunchilikda na-zarda tutilgan mavjud yoki eh-timoliy manfaatlar to'qnashuvini tartibga solish yuzasidan choralar ko'rmaganligi uchun javobgarlik ko'rsatilgan.

Ichki ishlar organlaridagi manfaatlar to'qnashuvi degan-da, xodimning shaxsiy manfaati (bevosita yoki bilvosita) uning xizmat vazifalarini obyektiv ba-jarishiga ta'sir qiladigan yoki ta'sir qilishi mumkin bo'lgan va qarama-qarshilik yuzaga keladi-gan yoki yuzaga kelishi mumkin bo'lgan holat tushuniladi.

Kadrlarni qarindoshlik, ham-shaharlik yoki shaxsiy sadoqat belgilari bo'yicha tanlash va joy-joyiga qo'yish holatlariga yo'l qo'ymaslik, manfaatlar to'q-nashuvining oldini olish va ularni tartibga solish yuzasidan o'z vaqtida chora-tadbirlar ko'rish rahbarning vazifasidir. Manfaatlar to'qnashuviga yo'l qo'ymaslik davlat xizmatchilarining o'z kas-biy faoliyati prinsipi hisoblanadi.

Xulosa o'rnida shuni ta'kid-lash joizki, mazkur qonun talabla-rini qat'iy va so'zsiz bajarish ichki ishlar organlaridagi manfaatlar to'qnashuvining oldini olish va hal qilish choralarga manfaatlar to'qnashuvi ishtirokchisi bo'lgan ichki ishlar organlari xodimining rasmiy pozitsiyasini o'zgartirishi shubhasiz.

Sharif QOBILOV,
IIV Akademiyasi professori,
polkovnik.



BIZNING SUHBAT

MDH VA MARKAZIY OSIYODA YAGONA INSTITUT

undan nimalar kutilmoqda?

O'zbekistonda Kriminologiya tadqiqot instituti ochilgani ko'pchilikda katta qiziqish uyg'otdi. Uning oldiga qo'yilgan maqsad-vazifalar to'g'risida institut boshlig'i, polkovnik Baxtiyor Berdialiyev bilan suhbat qurishga qaror qildik.

— **Baxtiyor Erkinovich, mam-lakatimizda Kriminologiya tadqiqot instituti tashkil etilishiga aynan qaysi omillar sabab bo'ldi?**

— So'nggi yillarda jinoyatning kelib chiqish sabablarini ilmiy asosda o'rganish orqali barvaqt oldini olish choralari ko'rish, jinoyatchilikni keskin kamaytirish masalasi keng jamoatchilik hamda ilmiy doira vakillari o'rtasida bot-bot kun tartibiga chiqayotgan edi. Shu bilan birga, respublikamizda kuzatilayotgan jinoyatchilik tendensiyalarini tahlil qilish, qonunchilik va huquqni qo'llash amaliyotini takomillashtirish orqali ularni bartaraf etish, shuningdek, ilmiy tadqiqotlarni huquq-tartibot amaliyotidagi muammolarning manzilli hal etilishiga yo'naltirish mexanizmlarini tubdan isloh qilish zarurati paydo bo'lgandi.

Joriy yilning 15-yanvar kuni davlatimiz rahbari tomonidan imzolangan «Jamoat xavfsizligini ta'minlash va jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasini ilmiy tadqiq qilish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish chora-tadbirlari to'g'risida»gi farmon hamda «Kriminologiya sohasida ilmiy-amaliy tadqiqot ishlarini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qaror bilan yuqoridagi masalalar o'z yechimini topib, Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi hamda Markaziy Osiyoda yagona bo'lgan O'zbekiston Respublikasi Kriminologiya tadqiqot instituti tashkil etildi.

— **Institut oldiga qo'yilgan aniq vazifalar nimalardan iborat? Bu borada dunyo tajribasi o'rganildimi?**

— Albatta, dunyo tajribasi o'rganilgan. Bugungi kunda yigirmadan ortiq davlatda kriminologiya sohasida ilmiy-tadqiqot institutlari mustaqil faoliyat yuritadi. Bizning institutimiz kriminologik faoliyatni ilmiy va ekspertlik jihatdan ta'minlashga ixtisoslashgan bo'lib, Ichki ishlar vazirligi tashkiliy tuzilmasiga kiruvchi respublika ilmiy-tadqiqot muassasasi hisoblanadi. Jamoat xavfsizligini ta'minlash va jinoyatchilikka qarshi kurashish maqsadida «g'oyadan amaliyotgacha» degan yangi tamoyil asosida ilmiy-amaliy tadqiqot loyihalarini bajarish orqali fanlararo bilimlarni

qo'llash tizimini yaratish, jinoyatning asl omillarini kompleks ilmiy tashxislash asosida aniqlash va bartaraf etish chora-tadbirlari tizimini belgilash, kriminologik faoliyatga sun'iy intellekt hamda zamonaviy raqamli texnologiyalarni joriy etish, yuridik, sotsiologik, psixologik, pedagogik, tibbiy, atrof-muhit, raqamli kriminologiya kabi zamonaviy tarmoqlarni rivojlantirish, ta'lim muassasalarida kriminologiya fanini tizimli o'qitish orqali yoshlarda jinoyatga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish kabi ko'plab vazifalar ustuvor yo'nalish sifatida bizga bevosita yuklatilgan. Bundan tashqari xorijdan bo'ladigan jinoiy tahdidlar, uyushgan jinoyatchiliklarning oldini olish ham muhim masalalardan deb o'ylayman.

— **Yuqorida dunyo davlatlaridagi kriminologiya sohasini tahlil qilishga ixtisoslashgan institutlar mustaqil ravishda faoliyat yuritishi borasida to'xtaladingiz. Bizda ham shunday bo'ladimi?**

— Juda o'rinli savol. Institutga Vazirlar Mahkamasi tomonidan



dissertatsiyalar, jinoyat omillariga ilmiy tashxis qo'yish, jinoyatchilik tendensiyalarini tahlil va prognoz qilish natijasi asosida «Jinoyatchilik omillari davlat hisoboti» hamda «Jinoyatchilik tendensiyalari davlat hisoboti»ni, har yil yakunida esa «Kriminologik tadqiqotlar davlat hisoboti»ni va kriminogen vaziyat yuzasidan tahliliy axborot tayyorlaydi.

— **Institutning tarkibiy qismlari hamda undagi shart-sharoitlar borasida ma'lumot bersangiz.**

— Institutda ikkita – Jinoyatchilik tendensiyalarini tadqiq

chiqish va hal qilish uchun Institut kengashi faoliyat yuritadi.

Bugungi kunda binomiz 70 foiz ta'mirlanib, mebel va jihozlar bilan ta'minlandi. Shaxsiy tarkibni jamlash ishlari jadal sur'atlarda davom etmoqda. Joriy yilning 19-iyul kuni Ichki ishlar vaziri, general-leytenant P. R. Bobojonov institutimizga tashrif buyurib, ta'mirlash ishlari qisqa muddatlarda yakunlash va Institutning o'z faoliyati bilan to'laonli shug'ullanishi uchun barcha sharoitlarni muhayyo qilish zarurligi haqida tegishli ko'rsatmalar berdi.

— **Bizdagi ma'lumotlarga qaraganda, xalqaro hamkorlik masalalarida allaqachon muzokaralar boshlangan...**

— Xalqaro hamkorlikni tashkil etish, jumladan, yetakchi xorijiy ilmiy-tadqiqot muassasalari bilan qo'shma ilmiy-amaliy tadqiqotlar loyihalarini amalga oshirish, ilmiy kadrlarni o'qitish sohasida o'zaro hamkorlik bo'yicha memorandum va bitimlar tuzish asosiy yo'nalishlarimizdan hisoblanadi. Hozirgacha Turkiya Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Politsiya Akademiyasi, Koreya Kriminologiya va adliya instituti hamda Germaniya Respublikasi Quyi Saksoniya Kriminologiya tadqiqot instituti bilan bevosita hamkorlik o'rnatildi va bir qator kelishuvlarga erishildi.

Joriy yilning 12–16-iyun kunlari Koreya Kriminologiya va adliya instituti prezidenti rahbarligidagi delegatsiya yurtimizda bo'lib, ichki ishlar organlari tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar bilan yaqindan tanishdi. Tashrif davomida ular institutimiz faoliyatini rivojlantirishda har tomonlama yordam ko'rsatishga tayyor ekanliklarini bildirishdi hamda o'zaro hamkorlik bo'yicha memorandum imzolandi. Yil yakuniga qadar institut xodimlarining Koreya, Avstraliya va Vengriya kabi davlatlarning kriminologiya sohasidagi ilg'or yutuq va tajribalarini o'rganish uchun ilmiy safarlari rejalashtirilgan. Bugungi kunda institut xorijiy davlatlarning kriminologiya sohasidagi deyarli barcha yetakchi ilmiy muassasalari bilan hamkorlik masalalarida memorandum va bitimlar tuzish ustida ish olib bormoqda. Bundan tashqari, respublikamizdagi 15 dan ortiq vazirlik va idoralar bilan hamkorlik o'rnatish arafasida turibmiz.

Abror POYONOV
suhbatlashdi.



lavozimga tayinlanadigan va lavozimidan ozod qilinadigan boshliq rahbarlik qiladi. Bu institut o'z vazifalarini har qanday davlat organlari, jamoat birlashmalari hamda mansabdor shaxslardan mustaqil ravishda amalga oshirishini, uning faoliyatiga to'sqinlik qilish, tadqiqot hisobotidagi ma'lumotlarni o'zgartirish uchun ta'sir ko'rsatish taqiqlanishini anglatadi. Chunki institut har chorak yakunida kriminologiya sohasida bajarilgan ilmiy-tadqiqot loyihalarini va

etish markazi va Jinoyat omillarini tadqiq etish markazi bor. Ularga institut boshlig'ining Ichki ishlar vaziri tomonidan lavozimga tayinlanadigan va lavozimidan ozod qilinadigan ikki nafar o'rinbosari boshchilik qiladi. Shuningdek, institut huzurida 4 ta kengash, ya'ni O'zbekiston Respublikasi Kriminologiya kengashi, Xalqaro ekspertlar kengashi, Ilmiy darajalar beruvchi muassasalararo ilmiy kengash hamda institut faoliyatining asosiy masalalarini ko'rib



AN'ANALAR BARDAVOM

Joriy yilning 11–12-iyul kunlari davlatimiz rahbarining Farg'ona viloyatiga tashrifi chog'ida Quva tumanida o'tkazilgan faollar yig'ilishida viloyatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, mahallalarni qadriyatlar maskaniga aylantirish va hududlarda jinoyatchilikni jilovlash borasida qator vazifalar belgilab berilgandi.

Ushbu ustuvor vazifalar farg'onaliklarni yanada jipslashtirib, yangi yutuq va marralar sari ruhlantirmoqda. Ularning ijrosini ta'minlash maqsadida Quva tumanida jinoyat-

intizom ruhida tarbiyalash, jinoyatchilikni jilovlashda ko'maklashish vazifasi qo'yildi. Shu munosabat bilan o'tkazilgan «Uch avlod uch-rashuvi»da murabbiylarga yangi



Soha faxriylari, iste'fodagi mayorlar Egamberdi Rahmonov hamda Vahobjon Xolmatov profilaktika inspektorlari, leytenant Jaloldin Ikromov, Azizbek Akbarov bilan suhbatlashmoqda.

chilikni jilovlashda o'ziga xos tajriba amaliyotga joriy etiladigan bo'ldi. Ya'ni, yangi ish boshlagan 28 nafar yosh profilaktika inspektoriga shu tumanda yashovchi, aynan profilaktika xizmatida boy amaliy tajriba to'plagan faxriylardan murabbiylar birlashtirildi va ularning oldiga yoshlarni Vatanga muhabbat, kasbga sadoqat, halollik va temir

tizim asosida hamkorlikda ish olib borish va Quva tajribasini yaratish borasida tavsiyalar berildi.

– Yangi ish boshlagan xodim har qancha bilimli bo'lmasin, shu sohada tajribasi bor ustozlarning maslahati va yordamiga muhtoj bo'ladi, – deydi iste'fodagi mayor Egamberdi Rahmonov. – Shu bois viloyat IIB rahbariyati hamda



General-mayor Azizbek Ikramov faol profilaktika inspektorlarini taqdirlamoqda.

Ma'lumot uchun, ushbu mahallada 4743 nafar aholi istiqomat qiladi. Xonadonlar soni 677 ta, oilalar esa 1145 tani tashkil etadi. Mahalla hududi to'liq raqamlashtirilgan bo'lib, o'rnatilgan kuzatuv kameralari inspektorning xizmat xonasiga integratsiya qilingan.

Faxriylar kengashi tomonidan «Ustoz-shogird» an'anasini sohaga kengroq tatbiq etish va tizimga kirib kelayotgan yosh xodimlarni tarbiyalash maqsadida faxriylar ko'magidan samarali foydalanilmoqda. Endilikda biz faxriylar bu tizimni namunalii tarzda yo'lga qo'yish uchun astoydil harakat qilamiz.

Faxriylarning yosh xodimlarga murabbiy sifatida birlashtirilishi ularning malaka va tajribasini mustahkamlashda, kasbiy mahoratini oshirishda, eng muhimi, jinoyatchilikni jilovlashda qo'l kelmoqda. Joriy yilning o'tgan 6 oyi davomida

viloyat bo'yicha 93 ta jinoyat bevosita faxriylarning amaliy yordami bilan fosh etilib, 10 nafar qidiruvdagi shaxsning ushlangani ham tajriba o'z so'zini aytayotganidan dalolat beradi.

Yangi tajriba allaqachon Quva tumani mahallalarida keng quloch yoydi. Masalan, yaqinda IIV Akademiyasini tamomlab, «Taxtako'prik» mahallasida profilaktika inspektori sifatida ish boshlagan leytenant Komiljon Ibrohimovga aynan shu mahallada bir necha yillar oldin profilaktika inspektori bo'lib ishlagan iste'fodagi kapitan Tavakaljon Abdurahmonov murabbiy etib birlashtirilgan edi.

Ustoz va shogird yurtboshimiz tomonidan belgilab berilgan vazifalarga «labbay» deya javob berib, hamkorlikdagi faoliyatini shu kunning o'zidayoq boshlab yuborishdi. Mazkur mahallani besh qo'lday yaxshi biladigan faxriy yosh inspektor bilan birga dastlab mahalla idorasiga borib, yettilik a'zolari bilan uchrashdi. Hamkorlikda amalga oshiriladigan ishlarni o'zaro maslahatlashib olishdi. So'ngra mahalla hududini aylanib, «xonadonbay» usulda o'rganishlar olib borildi. Mahalla markazidagi tadbirkorlik subyektiga, fuqarolarning xonadonlariga kirib, samimiy muloqotlar o'tkazildi.

Yo'l-yo'lakay tajribali ustoz shogirdiga jinoyatlarning barvaqt oldini olishda e'tibor qaratish zarur bo'lgan ustuvor jihatlar haqida tavsiyalar berdi.

Yurtboshimiz topshiriqlari asosida yo'lga qo'yilgan yangi tajriba va hamkorlikdagi bu kabi amaliy sa'y-harakatlar Quva tumani mahallalarini jinoyatchilikdan butunlay xoli hududga aylantirishiga ishonchimiz komil.

Abduvosit SIDIQOV,
o'z muxbirimiz.

Farg'ona viloyati.

«Taxtako'prik» mahallasi profilaktika inspektori, leytenant Komiljon Ibrohimov hamda uning murabbiyi, iste'fodagi kapitan Tavakaljon Abdurahmonovning hamkorlikdagi xizmat jaryoni.



FIDOYI XODIMLAR

«AJAB SAODAT ERUR CHIQA
YAXSHILIK BILA OT»

Shifokorning shirinsuxanligi, samimiyati hamda jonkuyarligi jismu joni xastalikdan aziyat chekayotgan har bir bemor uchun eng birinchi davodir. IIV Markaziy gospitalida o'z bilim va tajribasini ana shunday insoniy fazilatlar bilan to'ldirib faoliyat yuritayotgan oq libosli najotkorlar ko'p. Muassasaning 1-terapiya bo'linmasi boshlig'i, shifokor-terapevt, podpolkovnik Gulchehra Qosimova yigirma to'rt yildirki, soha xodimlari, faxriylar va ularning oila a'zolarining salomatligini tiklash, tibbiy xizmat sifatini yaxshilashdek ezgu ishlarga munosib hissa qo'shib kelayotgan oq libosli najotkorlardan, desak, aslo mubolag'a bo'lmaydi.



– Men uchun nihoyatda qadrlı ushbu dargohga ilk bora 1999-yilda kelganman, – deya xotirlaydi podpolkovnik G. Qosimova. – Turmush o'rtog'im podpolkovnik Rustam Qosimov ham ichki ishlar organlarida xizmat qilar, o'shanda gospitalda muolaja olayotgan edi. Uni ko'rishga kelib, bu yerdagi shifokorlar bilan suhbatlashib qoldim. Shu asnoda mehr qo'ygan soham bo'yicha gospitalda faoliyat boshlash fikriga keldim. Bu jamoada nihoyatda bag'rikeng insonlar jam bo'lgan ekan. Avvaliga umumiy terapiya bo'linmasi shifokor terapevti lavozimida erkin yollangan xodim sifatida ish boshladim. Oradan bir yil o'tib, ushbu bo'linma boshlig'i lavozimi-

ga shahodatlangan xodim sifatida tayinlanib, «leytenant» maxsus unvonini oldim. Muassasadagi uzoq yillik faoliyatim mobaynida kasb mas'uliyati va xizmat burchimga sadoqat hayotimning eng muhim unsurlaridan biriga aylandi.

Fidoiy shifokor uzoq yillik faoliyati davomida sohaga oid bilim va tajribasini elimiz osoyitaligini ta'minlashni maqsad qilgan xodimlar salomatligini tiklash, o'ziga bildirilgan ishonchni oqlash yo'lida tinimsiz mehnat qildi. Hamkasblari bilan to'g'ri tashxislash va muolajani tizimli davom ettirishda hamisha hammaslak bo'ldi. Bilganlarini o'rgatdi, kerakli vaziyatlarda fikrlashdi.

– Gulchehra Qosimova tajribali mutaxassis, qo'li yengil shifokor, – deydi Markaziy gospital boshlig'ining jarrohlik yo'nalishi bo'yicha o'rinbosari, mayor Anvar Radjabov. – Biroq u hech qachon sohaga oid bilim-ko'nikmalari va malakasini boyitishdan to'xtamaydi. O'quv-seminar, turli anjumanlarda ishtirok etib, kasbiy salohiyatini tinimsiz oshirib boradi. Tavsiyalari va muolajasi bilan bemorlar joniga oro kiradi.

Chin dildan qilingan mehnat inson uchun saodatli hayot eshiklarini ochadi. Mehnatsevarligi va jonkuyarligi bilan nafaqat hamkasblari, balki bemorlar mehri, ishonchini qozongan qahramonimizda ham shunday bo'ldi. **2021-yilda uzoq yillik samarali xizmat faoliyati qadr topgan Gulchehra Qosimova Prezidentimiz farmoniga binoan, «Sog'lom turmush» medali bilan taqdirlandi.** Yana bir jihat, ibratli umr sohibasining har kuni farzandlari bilan yanada to'kis. Uning katta o'g'li Bekzodjon muhandis, kichigi Jahongir harbiy xizmatchi bo'lsa, qizi Lolaxon onasining izidan borishni niyat qilib, ayni paytda tibbiyot oliygohida tahsil olmoqda. Nabiralari Muhammad Bobur, Umar, Ismoil esa mehdariyo buvijonisining jon-u dili, ko'zlarining quvonchi bo'lib ulg'aymoqda.

Yaqinda IIV Markaziy gospital rahbariyati va jamoasi ishtirokida podpolkovnik Gulchehra Qosimova pensiyaga kuzatildi. Tadbirida ishtirok etganlar uning kasbiy salohiyati, insoniy fazilatlarini xususida iliq fikrlar bildirishdi.

– Ish faoliyatimning birinchi kunidan menga Gulchehra Qosimovani ustoz sifatida biriktirishganda ochig'i cho'chiganman, – deydi ko'zida yosh bilan 1-terapiya bo'linmasi shifokor-terapevti Hurriyat Murodova. – Keyin bilsam, taqdir menga ham ustoz, ham bag'rikeng onani ro'para qilgan ekan. Ularning maslahat-u yo'l-yo'riqlari bilan sohaga oid bilim va tajribamni oshirib borayotgandim. Hali o'rganishim kerak bo'lgan jihatlarda juda ko'p edi. Ularga suyanardim. Hamkasblarimiz «Gulchehra Mirvaliyevnaning eng kichik shogirdi», deyishsa, yuragim faxrga to'lardi. Ustozimning ibratga to'la faoliyat yo'li men uchun hamisha namunadir.

Yorug' yuz bilan ...

Bu jumla inson umrining go'zal, o'z o'rnida yoqimli masrurlik onlarini ifoda etadi. Yoniq qalbining niyatlari umrining har bir kuniga mazmun bo'lib ko'chgan podpolkovnik Gulchehra Qosimova ham ana shunday saodat sohibasi ekanligiga shubhamiz yo'q.

Gulnoza TURG'UNBOYEVA,
o'z muxbimiz.

TOSHKENTNING
QADIMIY MAHALLALARI

ALLON

Olmazor tumanidagi mahalla. «Chimboy», «Chig'atoy darvoza», Alisher Navoiy, «Beruniy maydoni» va «Universitet» mahallalari bilan chegaradosh. 1931-yil tashkil qilingan. «Allon» so'zi Mahmud Koshg'ariyning «Devonu lug'otit turk» va Navoiy asarlarida «Olong» (tepalik, past-balandlik ma'nosida) shaklida uchraydi. Darhaqiqat, «Allon» Binkat atrofida, shahar devoriga yaqin joydagi tepalik yerda vujudga kelgan.

Mahalla faxriylaridan Daliboy Zohidov 37 yil (1950–87) oqsoqollik qilgan. Shu mahallada davlat arbobi N.A.Muhitdinov (1917–2008) tug'ilib o'sgan.

TARNOVBOSHI

Sebzor dahasidagi qadimgi mahalla. «Taxtapul», «Darvozakent», «Sebzor», «Kohota» mahallalari bilan chegaradosh bo'lgan. Arxiv materiallariga ko'ra, 19-asr oxirlarida Tarnovboshida 24 xonadon, bitta masjid bo'lib, ellikboshining ismi Tosh oqsoqol deb atalgan. Aholisi (asosan, o'zbeklar) hunarmandchilik, savdo-sotiq, dehqonchilik va bog'dorchilik (Yunusobod, Oqtepa, Boltamozor mavzellarida) bilan shug'ullangan. Tarnovboshida, shuningdek, maktab, tegirmon, temirchilik ustaxonasi, baqqollik do'konlari va boshqalar bo'lgan (20-asr boshi). Hozir hududida zamonaviy turarjoy binolari qurilgan.

CHUVALACHI

Sebzor dahasidagi qadimgi mahalla. «Teshikqopqa», «Chigitboshi», «Kaduvot», «Hasanboy» mahallalari bilan chegaradosh. 100 dan ortiq xonadon yashagan. Aholisi, asosan, o'zbeklar bo'lib, ko'pchiligi hunarmandchilik, dehqonchilik va bog'dorchilik (shahar tashqarisidagi yerlarida), savdo-sotiq bilan shug'ullangan. Chuvalachida tegirmon, bir necha baqqollik do'konlari, choyxona, masjid bo'lgan (20-asr boshi). Hozir Chuvalachi hududida bir qavatli turarjoy binolari saqlangan. Chuvalachi ko'chasi mavjud.

SARIKO'L

Mirobod tumanidagi mahalla. «Fitrat», «Qorasuv», «Oltinko'l» mahallalari bilan chegaradosh. 1930-yillarda mahalla o'rnida Chirchiq daryosi oqib o'tgan, keyinchalik daryo o'rnida ko'l paydo bo'lgan, uning suvi loyqa sariq rangda bo'lganligi uchun «Sariqko'l» deb atashgan. Vaqt o'tishi bilan ko'l qurib, o'rniga daraxtlar ekilgan, atrofida mahalla vujudga kelgan, unga hozirgi nomi berilgan. Mahalla 15 dan ortiq millat vakillari yashaydi.

«Toshkent ensiklopediyasi» asosida tayyorlandi.



DOIM HUSHYOR POSBONLAR

Viloyat IIB JXX JTSB PPX batalyoni maxsus otryad komandiri o'rinbosari, podpolkovnik H.Fayziyev hozirgina navbatchilik qismidan tushgan xabar asosida surishtiruv va qidiruv tadbirini boshladi. Chunki u o'g'rilik sodir bo'lgan Buxoro shahar «Ko'ksaroy» mahallasi hududidan o'tayotgan edi. Buni qarangki, o'g'ri hali uyiga kirib ulgurmagan ekan. Podpolkovnik H.Fayziyev sumka ko'tarib ko'p qavatli uylarning biriga kirayotgan shubhali shaxsni to'xtatib, narsalarini ko'zdan kechirmoqchi bo'ladi. Ammo u qochishga tushadi. Podpolkovnikning hushyorligi bois o'g'ri ushlandi.

PPX batalyoni 2-otryad bo'linma komandiri, safdor F.Norqulov va inspektor, safdor S.Sayidovlar shaharning Abdurahmon Jomiy ko'chasi bo'ylab xizmat olib borishayotgan edi. 42-uy oldida yurgan bir yigitning shubhali xatti-harakati huquq-tartibot posbonlarining e'tiborini tortdi. Xodimlar darhol yigitni to'xtatib, suhbatlashishdi. Suhbat jarayonida ushbu shaxs o'zini yanada bezovta tuta boshlagach, xolislar ishtirokida uning yonini ko'zdan kechirishdi.

Yigit bejiz bezovtalanmagan ekan. Uning yonidan g'iyohvand modda chiqdi.

PPX batalyoni 3-otryad inspektori, safdor M.Hassan o'ziga birlashtirilgan hududda sherigi bilan xizmat olib borayotgan payti shubhali kishiga ko'zi tushdi. U qidiruvda bo'l-



gan, Buxoro tumani Nometan qishlog'ida yashovchi B.Y. edi va u IIV JIED 6-mintaqaviy hudud 4-sonli tergov hibsonasiga joylashtirildi.

Joriy yilning o'tgan 6 oyi davomida bevosita PPX batalyoni xodimlari tomonidan 33 ta jinoyat fosh etildi, 13 nafar qidiruvdagi hamda 2 nafar bedarak yo'qolgan shaxs ushlandi. Ko'cha va jamoat joylarida mast holatda bo'lgan 1757 nafar fuqaro aniqlanib, 1200 nafari nar-kologiya dispanseriga yotqizilgan. Qolganlari profilaktika inspektorlariga, yashash xonadonlariga va yaqin qarindoshlariga topshirilgan. Bundan tashqari, teri-tanosil dispanseriga 52 nafar, aniq yashash joyiga ega bo'lmagan shaxslarni reabilitatsiya etish markaziga 132 nafar hamda voyaga yetmaganlar mar-

kaziga 187 nafar shaxs olib borib topshirilgan. Shuningdek, batalyon xodimlari tomonidan o'tkazilayotgan «Tig'» tadbiri davomida 308 nafar fuqarodan hayot va sog'liq uchun xavfli bo'lgan buyumlar olinib, ular bilan profilaktik suhbatlar o'tkazilgan hamda ma'muriy bayonnomalar rasmiylashtirildi.

Shuni alohida ta'kidlash joizki, batalyonda yosh xodimlarni tarbiyalash borasida aniq maqsadlarga yo'naltirilgan ishlar amalga oshirilyapti. Ularning har biriga tajribali xodimlardan murabbiylar birlashtirilgan. Faxriylar, xizmat rahbarlari tez-tez shaxsiy tarkib bilan uchrashib turishadi. Xodimlarning xizmat, jangovar va jismoniy tayyorgarligini oshirish maqsadida turli ko'rik-tanlovlar, sport musobaqalari o'tkazib turiladi.

Mirzoqul AHADOV,
o'z muxbirimiz.

Buxoro viloyati.



MUHIMI – HAMDARDLIK

Barchinoy Abduvaliyeva Andijon viloyati IIB Tibbiyot bo'limi poliklinikasida qariyb 30 yildan buyon hamshira bo'lib ishlaydi. U mehnat faoliyati davomida Gulhayo Norqo'ziyeva, Fotima Karimova, Sabina Bo'ronova, Nozima Ahmadjon qizi kabi ko'plab shogirdlarni tarbiyaladi.

Barchinoy Abduvaliyeva Andijon tibbiyot bilim yurtini bitirgan. U o'qishni tamomlab, bir necha yil Andijon davlat tibbiyot instituti klinikasida jarrohlik hamshirasi bo'lib ishladi.

Hamshira Barchinoy poliklinikadagi barcha bemorlar yaxshi taniydi. U odamlarni samimiy tabassum bilan kutib oladi, hol-ahvol so'raydi, so'ngra zarur muolajalarga kirishadi.

– Barchinoyning «qo'li juda yengil», – deydi ichki ishlar organlari faxriysi, iste'fodagi polkovnik Omonboy Mamasoliyev. – U muolaja qilganda hech qanday og'riq sezilmaydi, juda e'tiborli va g'amxo'r.



– Hamshiraning ishida eng muhimi – odamlarga yordam berish istagi, – deydi hamshira Barchinoy Abduvaliyeva. – Buning

uchun doimo yaxshi kayfiyatda bo'lish va ko'tarinki ruhni saqlash, shifokorning barcha ko'rsatmalariga qat'iy rioya qilish va bemorlar bilan ziddiyatli vaziyatlar kelib chiqishiga yo'l qo'ymaslik kerak. Hamshiralik kasbini egallaganlar har kuni turli kuchli hissiy tuyg'ularni boshdan kechirishiga to'g'ri keladi, chunki ularning ishi murakkab va katta mas'uliyat talab qiladi. Lekin shunga qaramay, men ishimni juda yaxshi ko'raman.

U turmush o'rtog'i Hamidjon bilan bir qiz va ikki o'g'ilni voyaga yetkazishdi. O'g'illari huquq-tartibot organlarida xizmat olib boradi. Nodirbek Milliy gvardiya viloyat boshqarmasi Andijon shahri bo'yicha qo'riqlash bo'linmasi markaziy texnik pulti haydovchisi, safdor. Sherzodbek patrul-post xizmati batalyonidagi otryadlardan birida safdor xodim sifatida xizmat qiladi. Abduvaliyevlarning katta va ahil oilasida 8 nabira voyaga yetmoqda.

Boris KLEYMAN,
o'z muxbirimiz.

Andijon viloyati.





Передовые технологии

ДЛЯ ВЫПОЛНЕНИЯ ОСОБЫХ ЗАДАЧ

В прошлом месяце глава государства посетил Центр координации и мониторинга Департамента общественной безопасности Министерства внутренних дел. Была поставлена задача – создать в ведомстве структуру по применению беспилотных летательных устройств. Даны дополнительные поручения по усилению профилактики преступности и обеспечению безопасности массовых мероприятий.



Достонбек Косимжонов выпускник Академии МВД. За время службы в ЭКЦ УВД Андижанской области неоднократно повышал квалификацию. Имеет допуск к проведению дактилоскопической, трасологической,

баллистической, почерковедческой экспертиз, технической экспертизы документов и холодного оружия. Опыта набирался под руководством главного эксперта-криминалиста ЭКЦ подполковника Насибулло Юнусова.

– Я пошел по стопам старшего брата Диёрбека, – рассказывает Д. Косимжонов. – Он в звании капитана служит начальником группы миграции и оформления гражданства в Ходжаабадском РОВД.

Старший эксперт-криминалист ЭКЦ УВД Андижанской области майор Д. Косимжонов обучался на курсах по использованию дронов в Геоинновационном центре и получил сертификат на использование беспилотных летательных аппаратов.

– В своей работе мы используем два типа беспилотников, – продолжил наш собеседник. – Они просты в управлении, с высокой точностью передают изображение на монитор. Беспилотники обеспечивают дополнительные точки обзора во время проведения массовых мероприятий. Дроны позволяют контролировать ситуацию с массовым скоплением людей, когда необходимо координировать их движение.

Беспилотники также полезны в реконструкции дорожно-транспортных происшествий. БПЛА точно учитывают заносы поля обломков, дают возможность получить другую ценную информацию.

Борис КЛЕЙМАН,
соб. корр.

Андижанская область.

■ Кашкадарьинская область



ЭФФЕКТИВНОСТЬ СИСТЕМНОЙ РАБОТЫ

В области ведется планомерная работа по проверке соблюдения гражданами правил паспортной системы, учету лиц, проживающих на основе постоянной регистрации, а также граждан иностранных государств и лиц без гражданства. За шесть месяцев текущего года на временный учет поставлены более 11 тысяч иностранных граждан и лиц без гражданства.

В ходе проверки гостиницы «Окшом плаза» города Карши установлено, что подданный Германии не был поставлен на временный учет через программу «Е-мехмон». На руководителя гостиницы в установленном порядке оформлен протокол об администра-

тивном нарушении, наложен штраф. Соответствующая мера применена в отношении 88 домовладельцев, незаконно разместивших у себя граждан иностранных государств.

Также оформлено наложение штрафа на 126 иностранных граждан, нарушивших по-



рядок пребывания в стране. Установлен постоянный контроль над гостиницами, гостевыми домами, санаториями, хостелами на предмет подключения к программе «Е-мехмон» и регистрации гостей.

За минувший период года жителям области выданы почти 153 тысячи идентификационных карт, ID-карты оформлены на 156 лиц без гражданства.

Оформлены подтверждающие личность документы иностранных граждан и лиц без гражданства, прибывших на постоян-

ное жительство в Кашкадарьинскую область.

– ID-карта – документ, подтверждающий личность гражданина. К ней нужно относиться бережно. По этому поводу ведется профилактическая работа среди населения. За минувший период восстановлены ID-карты 5 821 жителя области, утерявших их, – говорит начальник Управления миграции и оформления гражданства областного УВД подполковник Баходир Узаков.

Содик РАХИМОВ,
соб. корр.



XAVFSIZ TURIZM

Qashqadaryo viloyati



Mamlakatimizda turizmni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilayotgani tufayli u istiqbolli sohalardan biriga aylanib bormoqda. Buni birgina Qashqadaryo viloyatida yildan-yilga sayyohlar oqimi oshib borayotganida ham ko'rish mumkin. O'tgan yili vohaga 225 233 nafar xorijlik sayyoh tashrif buyurgan bo'lsa, joriy yilning dastlabki 6 oyida bu ko'rsatkich 257 385 nafarni tashkil etdi.



QOROVUL QO'SHINLARIDA

«KASBIM — FAXRIM, G'URURIM, IFTIXORIM!»

Kosonlik
Nurqul ota va
Shirin momo
yaxshi niyatda
12 nafar
farzandni
tarbiyalab
voyaga
yetkazdi.
Ular orasida
Sherqul va
akasi Nurbek
Arziqulovlar
bolaligidan
harbiy sohaga
mehr qo'yishdi.



Harbiy xizmatni o'tab qaytgan Nurbek Mudofaa vazirligi tasarrufidagi Qarshi shahrida joylashgan harbiy qismlarning biriga shartnoma asosida xizmatga kiradi. Uzoq yillar davomida ushbu jamoada fidoyilik bilan faoliyat yuritib, yorug' yuz bilan pensiyaga kuzatiladi.

Ukasi Sherqul esa IIV Qorovul qo'shinlariga qarashli 7533-harbiy qism ta'minot batalyonida yo'riqchi-o'rgatuvchi lavozimida xizmatni boshlaydi. Ustozi, hozirda iste'fodagi serjant Quvondiq Muqimovdan harbiylik sir-asrorlarini o'rganadi. Keyinchalik xizmatni qo'shinlarga qarashli poytaxtimizdagi 7534-harbiy qismda davom ettiradi.

Bugungi kunda III darajali serjant Sherqul Arziqulov Toshkent viloyatidagi 7535-harbiy qism seksiya komandiri lavozimida qo'l ostidagi Vatan himoyachilarining ma'naviy-ma'rifiy hamda jismoniy va jangovar jihatdan yuksalishi yo'lida ko'plab sa'y-harakatlarni amalga oshirib kelmoqda.

Oddiy askarlar Sarvar Egamberdiyev, Abdulla A'zamov hamda Ilhom Parmonov uni o'zlariga ustoz deb bilishadi.

Kasbidan e'zoz topib kelayotgan Sherqul Arziqulovning turmush o'rtog'i Saodatxon Komilova hamshira. Insonlar tinchlik-xotirjamligi va salomatligi yo'lida kamarbasta bo'lib kelayotgan bu juftlik hozirda uch nafar o'g'ilni tarbiyalab, kamolga yetkazmoqda. Sh. Arziqulov xizmatdan bo'sh paytlarida farzandlari bilan badiiy asarlarni o'qib, ularning mazmun-mohiyatini o'rtoqlashadi. Oila a'zolari bilan tarixiy qadamjollarga ham sayohat qilib, ona tabiatning so'lim go'shalarida hordiq chiqaradi.

— Kasbim—faxrim, g'ururim, iftixorimdir. Oilam esa hayotdagi bitmas-tuganmas baxtimdir, — deydi III darajali serjant Sh. Arziqulov. — Shu boisdan men uchun qadrlı bo'lgan bu ikki ne'matni doimo qadrlab kelaman.

Mixli SAFAROV,
o'z muxbirimiz.

OYLIK DOIRASIDA

BILIM VA MAHORAT SINOVİ

Xorazm viloyati IIB hamda Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi hamkorligida «Al-Xorazmiy avlodlari» onlayn olimpiadasining viloyat bosqichi o'tkazildi.

«Kibermadaniyatni yuksaltirish oyligi» doirasida bo'lib o'tgan bellashuvda 3004 nafar o'quvchi ishtirok etdi. Ish-tirokchilarning natijalari mutaxassislar tomonidan kuzatib borildi va xolisona baholandi.

Olimpiada g'olib va sovrindorlari tashkilotchilar tomonidan munosib rag'batlantirildi.

O'z muxbirimiz.

Xorazm viloyati.





XATO QILMOQ BORDIR...

Hayotda kutilmagan sinovlar bisyor. Hali g'o'r, qiziqqon yigit-qizlar ba'zan bilib-bilmay jinoyat ko'chasiga kirib qoladi. Oqibatda bir umr «jinoyatchi» degan tamg'ani ko'tarib yurishga majbur bo'ladi. Bunday yoshlarga yon-atrofdagilar, jamoatchilikning munosabati, qarashi o'zgaradi, albatta. Biroq bugun bunday yoshlar e'tibordan chetda emas. Ularga xatosini anglab, uni to'g'rilash uchun yana bir imkoniyat berilmoqda. O'z qilmishidan pushaymon, qilgan xatosini anglagan yoshlar kafillikka olinib, qamoq jazosidan saqlab qolinib, sud zalidan ozod qilinmoqda va probatsiya guruhi nazoratiga olinmoqda.



– Bugungi kunda probatsiya bo'limi hisobida 83 nafar yosh hisobda turadi. Ularning aksariyati axloq tuzatish ishlari hamda ozodlikni cheklash jazosiga hukm qilinganlaridir, – deydi poytaxtimizning Sergeli tumani IIOFMB Probatsiya bo'limi boshlig'i podpolkovnik Ulug'bek Hojiqulov. – Ular bilan mahalla yetiligi, tuman yoshlar ishlari agentligi, bandlikka ko'maklashish markazi, hokimlik va boshqa idoralar hamkorligida tegishli profilaktik tadbirlar tashkil etiladi. Bunday tadbirlar natijasi o'laroq, joriy yilning 7 oyi davomida hisobda turgan yoshlar tomonidan birorta ham qayta jinoyat sodir etilmadi.

Hisobda turgan yoshlarning bo'sh vaqtini unumli va mazmunli o'tkazish uchun ma'naviy-madaniy to'garaklar, sport musobaqalari, bepul sayohatlar, sog'lomlashtirish, ko'ngilochar tadbirlar reja asosida tashkil etilgan. Shuningdek, ularning ijtimoiy himoyasi bo'yicha ham keng ko'lamli, tizimli ishlar yo'lga qo'yilgan. Xususan, yoshlarning 11 nafariga pasport olib berildi, axloq tuzatish ishlari jazosiga hukm qilingan 49 nafar yosh iqtisodiy kafolatlangan doimiy ish joyi bilan ta'minlandi.

Shu bilan birga, 23-iyuldan 23-avgustga qadar bo'lib o'tayotgan «Probatsiya oyligi» doirasidagi «Hamkor» maxsus profilaktik tadbirlarda shu kabi bir qator tizimli ishlar yo'lga qo'yilgan. Quyidagi misollar ham fikrimizning yaqqol dalilidir.

1996-yilda tug'ilgan Sergey Son o'g'irlik jinoyati sodir etib, 3 yilga ozodlikdan mahrum qilish jazosi tayinlangan edi. 2022-yil ozodlikka chiqdi va uning o'talmay qolgan

1 yil-u bir oy 16 kuni ozodlikni cheklash jazosiga almashtirildi.

Sergey ozodlikka chiqib uyiga qaytdi, ammo uni na otasi, na onasi kutib oldi. Xonadon eshigiga qulf osilgan, yaqinlari esa xorijga ketib qolgan... Sergey esa yana yolg'iz...

– Afsuski, faoliyatimizda bu kabi holatlar ham uchrab turadi, – deydi podpolkovnik Ulug'bek Hojiqulov. – Muassasada tarbiyalanib, o'z yo'lini aniq belgilab olgan, tuzalish yo'liga o'tgan mahkumlarning oilasidagi nosog'lom muhit, farzand tarbiyasiga beparvolik bois uning yana qayta jinoyat sodir etmasligiga kim kafolat beradi? Ko'chada qolgan Sergeyga hokimiyat tomonidan vaqtincha yashash uchun uy-joy qilib berildi, mebel ishlab chiqarish korxonasiga ishga joylandi, pasport olib berildi.

– Garchi jinoyatga qo'l urgan bo'lsam-da, menga yana bir imkon berildi, – deydi Sergey Son. – Bu imkon qilgan xatolarimni tuzatishga, ozodlikni qadrlab, jamiyat uchun foyda keltiradigan inson bo'lishimga berildi, aslida. Va'da beraman, kelajakda shu yurtga nafi tegadigan inson bo'laman, ishonchni oqlayman.

Darhaqiqat, har qanday inson ham xato qilishi mumkin. Faqat bundan tegishli xulosa chiqarsa, hayotda to'g'ri yo'lni topib oladi. Aks holda, avvalo, o'ziga jabr qiladi. Ha, «Xato qilmoq bordir, tuzatmaslik ordir» degan naql bejiz yaralmagan. Hukumatimiz tomonidan amalga oshirilayotgan bu kabi ezguliklar Sergey Son kabi yana ko'plab yoshlarning hayot o'zanini o'zgartirishiga ishonamiz.

Adolat FAYZIYEVA,
o'z muxbirimiz.

Toshkent shahri.

Angren shahridagi «Karvon» mahallasida yashovchi Siddiq Sobirov (voqea ishtirokchilarining ism-familiyalari o'zgartirildi) jinoyatga qo'l urdi. Ya'ni, xususiy korxonalardan biriga o'g'rilikka tushib, u yerdan qimmatbaho kabel simlarini olib chiqdi-da, pullab yubordi.



HAR KIM EKKANINI O'RADI

Olib borilgan surishtiruvlar natijasida qonunbuzar qo'lga olinib, sud hukmiga havola etildi. Aybiga iqrar bo'lgani va yetkazilgan zararni o'z vaqtida qoplagani uchun unga nisbatan 2 yil muddatga axloq tuzatish ishlari jazosi tayinlandi. Jazoni o'tash davrida mehnatga yaxshi munosabatda bo'lgan, o'rnatilgan tartib-qoidalarga amal qilgan Siddiq muddatidan avval jazodan ozod etildi.

«Taraqqiyot» mahallasida istiqomat qiluvchi Ikromjon Lo'qmonov esa, aksincha yo'l tutdi. 2 yil-u 6 oyga axloq tuzatish ishlari bilan jazolangan bu kimsa uni o'tashdan bo'yin tovlab, ishga ham bormasdan, kamiga spirtli ichimlik iste'mol qilib, huquqbuzarlik sodir etdi. Natijada uning o'talmay qolgan jazo muddati og'irrog'iga, ya'ni ozodlikdan mahrum etish jazosiga almashtirildi.

Angren shahar IIB Probatsiya bo'limi xodimlari tomonidan samarali amalga oshirilayotgan profilaktik ishlar natijasida tuzalish yo'liga o'tgan, qilmishidan chin ko'ngildan pushaymon bo'lgan 139 nafar mahkum tayinlangan jazodan mud-

datidan oldin shartli ravishda ozod etildi. Berilgan jazodan o'ziga tegishli xulosa chiqarish o'rniga, uni o'tashdan qasddan bo'yin tovlagan, belgilangan tartib-qoidalarga rioya etmagan 34 nafar mahkumning jazosi esa og'irrog'iga almashtirildi.

– Nazorat ostidagi shaxslarni ishga joylashtirish bo'yicha mutasaddi tashkilotlar, xususan, tuman Kambag'allikni qisqartirish va bandlikka ko'maklashish bo'limi bilan birgalikda ish olib boryapmiz, – deydi Probatsiya bo'limi katta inspektori, mayor Murodjon Toshpo'latov. – Natijada 23 marta mehnat yarmarkalari o'tkazilib, 114 nafar mahkum ish bilan ta'minlandi. Nazoratdagi 2 nafar shaxsga esa subsidiya ajratildi va ulardan biri chorvachilik, ikkinchisi hunarmandchilik yo'nalishida tadbirkorlikni yo'lga qo'ydi.

Hozirgi paytda mahkumlar ish-tirokida muntazam ravishda sayyor sudlar tashkil qilinmoqda. Shuningdek, yashash va ish joylari ko'zdan kechirilib, ular o'rtasida tez-tez profilaktik suhbatlar o'tkazilmoqda.

Mixli SAFAROV,
o'z muxbirimiz.

Toshkent viloyati.



Урок духовности и просвещения

КОНФЛИКТ ИНТЕРЕСОВ – ВРАГ ПРОГРЕССА

Конфликт интересов – понятие, применяемое в международных документах, зарубежном и национальном законодательстве в связи с борьбой с коррупцией в сфере государственного управления и корпоративной деятельности.

Актуальность борьбы с этим негативным явлением, способным стать тормозом на пути обновления и прогресса, востребовало принятие Закона Республики Узбекистан от 5 июня 2024 года «О конфликте интересов» (вступает в силу по истечении шести месяцев со дня официального опубликования).

Законом закреплена следующая редакция понятия конфликта интересов – ситуация, при которой личная заинтересованность (прямая или косвенная) лица влияет или может повлиять на надлежащее исполнение им своих должностных или служебных обязанностей и при которой возникает (реальный конфликт интересов) либо может возникнуть (потенциальный конфликт интересов) противоречие между личной заинтересованностью и правами, законными интересами граждан, организаций, общества или государства.

Действие Закона распространяется на госорганы и органы государственной власти на местах, госучреждения, государственные унитарные предприятия, целевые фонды, а также на акционерные общества с долей государства в уставном капитале в размере 50 процентов и более.

Как показывает практика, конфликт интересов может возникнуть при подборе кадров, продвижении сотрудника по службе, предоставлении льгот, осуществлении государственных закупок и др. Он может иметь место при несоблюдении должностными лицами трудового законодательства, при нарушении установленных запретов (например, использование служебной информации в личных интересах), совершении действий, препятствующих другим работникам выполнять трудовые обязанности.

Конфликт интересов проявляется в силу семейственности, местничества, nepoтизма, клановости. Например, на основе семейственности выражается в форме привилегированного на основе родства отношения к тем или иным лицам. Важную роль в профилактике семейственности в госорганах играет ст. 121 Трудового кодекса, в соответствии с которой запрещается совместная служба в одной и той же государственной организации лиц, состоящих между собой в близком родстве или свойстве (родители, братья, сестры, сыновья, дочери, супруги, а также родители, братья, сестры и дети супругов), если их совместная

служба связана с непосредственной подчиненностью или подконтрольностью одного из них другому.

Конфликт интересов причиняет существенный вред правам или охраняемым законом интересам граждан либо государственным или общественным интересам, что в свою очередь может повлечь ответственность за коррупционные преступления, такие как злоупотребление властью или должностными полномочиями, превышение власти или должностных полномочий, бездействие власти, должностной подлог и др.

В соответствии со ст. 6 Закона «О конфликте интересов» сотрудник госоргана и иной организации обязан:

не допускать личной заинтересованности, которая приводит или может привести к конфликту интересов при выполнении должностных обязанностей или служебных полномочий;

Сотрудник государственного органа не вправе:

- получать личную выгоду путем злоупотребления служебным положением;
- скрывать сведения либо предоставлять заведомо ложную или недостоверную информацию при раскрытии информации о конфликте интересов;
- владеть акциями или долями в уставном фонде (уставном капитале) субъекта предпринимательской деятельности, находящегося под контролем государственного органа или иной организации, где он осуществляет трудовую (служебную) деятельность, а также быть членом органа управления данных субъектов предпринимательской деятельности, за исключением случаев, предусмотренных законодательством.

в случае возникновения реального конфликта интересов уведомлять вышестоящего руководителя или специальное подразделение до принятия решения по документам, находящимся в его делопроизводстве;

сообщать об известных ему случаях конфликта интересов в отношении других сотрудников и др.

Контроль за соблюдением указанных требований возлагается на Комиссию по этике, рассматривающей вопросы о достаточности (правильности) мер, принимаемых по урегулированию конфликта интересов, выносящей заключение о наличии (отсутствии) нарушений требований, установленных Законом, и т. д.



Урегулирование конфликта интересов возлагается на специальное подразделение, в качестве которого может быть подразделение внутреннего антикоррупционного контроля или кадровая структура. К их полномочиям относятся: обобщение информации о выявленных случаях конфликта интересов; проведение проверок; осуществление разъяснительной работы по предупреждению конфликта интересов среди сотрудников; представле-

новение ответственности. Законом от 5 июня 2024 года КоАО дополнен ст. 193⁴, предусматривающей ответственность за невыполнение требований законодательства о конфликте интересов. Кроме того, ст. 114 Гражданского кодекса, предусматривающая общие правила о последствиях недействительности договоров, дополнена положением: «В случае признания сделки, заключенной с допущением конфликта интересов, недействительной, прибыль, полученная в результате заключения этой сделки, обращается в доход государства в судебном порядке без требования о возврате всего полученного по сделке. Расходы, связанные с исполнением такой сделки, возмещаются за счет лица, допустившего конфликт интересов». При этом, как гласит ч. 2 ст. 116 Гражданского кодекса, «сделка, заключенная с допущением коррупции, в том числе конфликта интересов, признается недействительной в судебном порядке».

Безусловно, требования Закона «О конфликте интересов» относятся и к сотрудникам ОВД. Статья 6 Закона «Об органах внутренних дел» гласит, что сотрудники в своей деятельности обязаны точно соблюдать и исполнять требования Конституции Узбекистана, настоящего Закона и других актов законодательства. Следовательно, исходя из норм Закона «Об органах внутренних дел», Положения о порядке прохождения службы в органах внутренних дел к сотруднику ОВД могут быть применены соответствующие меры в случаях нарушения обязанностей при регулировании отношений, связанных с конфликтом интересов.

Национальное законодательство по противодействию конфликту интересов направлено на создание благоприятных условий для предотвращения любых проявлений коррупции и иных злоупотреблений, развития единой системы прав и обязанностей для государственных служащих всех уровней.

Рафик ШАКУРОВ,
доцент Центра повышения
квалификации юристов при
Министерстве юстиции
Республики Узбекистан,
кандидат юридических наук.



IKKINCHI ISTE'DOD

SO'Z SEHRIGA OSHNO XODIM

Ijodkor qalami bilan go'zal va pokiza tuyg'ular timsolini ajib topilmaga aylantirib, qog'ozga tushirish saodati nasib etgan inson. Samarqand viloyati IIB YHXB katta inspektori, katta serjant Akmaljon Bozorovning ko'nglida ham adabiyotga, ijodga ishtiyoq kuchli. Bo'sh vaqtlarida she'rlar, kichik-kichik hikoyalar yozadi.

– O'n yetti yildan buyon ichki ishlar organlarida xizmat qilaman, – deydi lavhamiz qahramoni. – Zimmamizga yuklatilgan vazifalar alohida mas'uliyatni, e'tiborni, o'z o'rnida, muros va muomalani talab etadi. Xizmatimiz doim odamlar orasida kechgani bois har xil yosh va kayfiyatdagi insonlar bilan bevosita muloqot jarayonida o'zim uchun muhim hayotiy xulosalarga kelaman. Xizmatdan bo'sh vaqtlarimda ko'nglimdan kechganlarni qo'ldan kelgancha qog'ozga tushirishga harakat qilaman.

Adabiyot – ilm, unga hissa qo'shish istagida qalam tutgan inson borki, ijodiy mahoratini yuksaltirib, so'z san'atini puxta egalashi muhim. Qahramonimizning ham so'z sehriga oshno yuragi doim nimadir deyishga undaydi. Akmaljon tez-tez ijodkorlar davrasiga, ularning suhbatiga talpinadi. Samarqandlik ijodkor Dilmurod Shonazarov bilan doim ijod namunalari xususida fikrlashadi.

– O'quvchilik davrimdan adabiyot faniga qiziqardim, – deydi ijodkor xodim. – Juda ko'p kitob o'qirdim. Ba'zan ijodga shu mutolaalar orqali kirib qolganman, deb o'ylayman.

Akmaljon Bozorov tabiatan og'ir-bosiq, mulohazakor yigit. Uning qarashlari, fikrlashi ham shunday. Ko'pincha ko'zi tushgan holatdan mohiyat axtaradi. Olamni, odamlarni har xil salbiy illatlardan xoli ko'rishni xohlaydi. Insoniy tuyg'ularni nihoyatda chiroyli talqin qilishga harakat qiladi. Yozgan har misrasi qalblarga ma'naviy ozuqa, yorug'lik olib kirishini istaydi.

E'tiborli yana bir jihat, oilasida ayoli Gulnora bilan ulg'aytirayotgan farzandlari Mehrinoz, Behruz, Ruxshona, Mehribonlarda ham kitobga mehr uyg'otishga, til o'rganishiga alohida ahamiyat qaratadi. Har doim maosh olganida xonadonidagi mo'jagina kutubxonasini boyitish maqsadida kitob xarid qilishni kanda qilmaydi. Hamkasblari, ayniqsa, yosh xodimlarga kitob o'qish



ma'naviy bilimlarni boyitishning eng muhim usuli ekanligini uqtirishdan charchamaydi.

Aytgancha, har bir ijod namunasida o'ziga xos topilmalari bilan ko'ngliga tukkan niyatini o'quvchining yuragiga qadar yetkazishni maqsad qilgan katta serjant Akmaljon Bozorov ayni kunlarda she'r va hikoyalardan iborat «Yaratganga muhabbatim» deb nomlangan ilk kitobini nashrga tayyorlayapti. Niyatimiz ijodkor xodimning xizmatda ham, ijodda ham qadamlari dadil va qutlug' bo'lsin!

Gulnoza TURG'UNBOYEVA,
o'z muxbirimiz.

Samarqand viloyati.

HAYOT FALSAFASI

Hayot shunday og'ir ekan,
Ko'ngil ko'ngilga sig'maydi.
Azoblari chaqir tikan,
Yurak yurakni tig'laydi.

Umid uchqunlari so'ngan,
Ilinj visolni qumsaydi.
Armonlarga to'lib ketgan,
Ko'zlar ko'zlarga tushsaydi.

Kimlar bunda hamyoni to'q,
Hijron gardini bilmaydi.
Qorni ochning chaqasi yo'q,
Hayot nazarga ilmaydi.

Yo'llar yaqin, ko'ngil uzoq,
Ko'ngil sog'inchni istaydi.
G'amlariga bo'lib sirtmoq,
Dorlar arqonga sig'maydi.

Tun-u kunda faqat zulmat,
G'urur nomusni o'ylaydi,
Sotilmagay aslo iffat,
Shirin orzuni bo'ylaydi.

Akmaljon BOZOROV,
katta serjant.

HUDUDLARDA

YUKSAK MARRALARNI KO'ZLAB...

Do'stlik tumani IIB hamda tuman hokimligi tashabbusi bilan ayollar o'rtasida voleybol musobaqasi uyushtirildi. Bir hafta davom etgan bellashuvlarda tashkilot, korxona va muassasalarda faoliyat yuritayotgan xotin-qizlar hamda uy bekalaridan tarkib topgan 54 ta jamoa kuch sinashdi.



Ta'kidlash kerak, Do'stlik tumani ichki ishlar organlari xodimlari aholi o'rtasida voleybolni faol targ'ib qilishyapti. Jumladan, soha vakillari tashabbusi bilan bugungacha yoshlar, xotin-qizlar va erkaklar o'rtasida 16 ta musobaqa uyushtirilib, g'olib jamoalar munosib taqdirlanmoqda.

Bu kabi bellashuvlar Do'stlik tumani voleybol jamoalarining Ichki ishlar vaziri kubogi uchun o'tkaziladigan an'anaviy musobaqalarda yuqori natijalarga erishishi uchun xizmat qiladi. Darvoqe, tuman IIB sport zalida xotin-qizlar voleybol klubi faoliyat yuritmoqda.

Alijon ABDUSATTOROV,
o'z muxbirimiz.

Jizzax viloyati.



www.postda.uz



t.me/postdarasmiy



www.facebook.com/postdauz



www.instagram.com/postda_uz

■ Qoraqalpog'iston Respublikasi

JINOYATLAR FOSH ETILMOQDA

Qoraqalpog'iston Respublikasi Transportda xavfsizlikni ta'minlash boshqarmasi «Nukus» bekati bo'linmasi xodimlarining xizmat ko'rsatish hududining umumiy uzunligi 173 kilometrni tashkil etib, unga «Nukus» temiryo'l vokzali, «Nazarxan», «Qoybaqli», «Qorao'zak», «Baday», «Taxirko'l», «Kumshungul» va «Chimboy» bekatlari kiradi.



Joriy yilning 6 oyi davomida bo'linma xodimlari tomonidan olib borilgan ishlar natijasida 8 ta jinoyat holat aniqlandi. Xususan, aprel oyida Nukus shahrida yashovchi B.T «Taxirko'l-Kumshungul»

peregonidagi temiryo'l svetoforlarini nazorat qilib turuvchi 150 metr kabelni o'g'irlab ketgani fosh etildi. Iyul oyida esa fuqaro S.S. ikki sherigi bilan til birlashtirgan holda, o'ziga tegishli bo'lgan «Gongfen» rusumli avtomashinada «Nukus» vokzali hududida



turgan yuk vagonlaridan sement mahsulotini yuklayotgan paytda qo'lga olindi.

Mazkur holatlar yuzasidan jinoyat ishlari ochilib, aybdorlarga nisbatan sud

tomonidan tegishli jazo choralari qo'llanildi.

O'tgan davr mobaynida bo'linmaning patrul-post xizmati xodimlari tomonidan 144 ta huquqbuzarlik aniqlanib, ma'muriy bayonnomalar rasmiylashtirildi.

– Bo'linmaga qarashli hududlarda 8 ta mahalla fuqarolar yig'ini, 6 ta maktab va maktabgacha ta'lim muassasasi, 9 ta turdagi turli mahkamalar joylashgan. Xodimlarimiz asosiy e'tiborni ushbu hududlarda tezkor-profilaktik tadbirlarni samarali tashkil etishga qaratishgan, – deydi boshqarmaning «Nukus» bekati bo'linmasi boshlig'i, mayor Ikram Turdimuratov.

Azamat PIRNIYAZOV,
o'z muxbirimiz.



▶ UCHINCHI SEKTORDA

KO'PNING DUOSI KO'L BO'LADI

Muzrabot tumanidagi «Yurtim jamoli» mahallasida yashovchi Zarnigor Abdushukurova yolg'iz onasi bilan birga yashaydi. Oila ijtimoiy yordamga muhtoj. Mahalla idorasida o'tkazilgan uchrashuvlarning birida Zarnigor qo'lidan tikish-bichish kelishini, ammo tikuv mashinasi yo'qligini aytib, 3-sektor rahbaridan yordam so'radi. Biroz muddatdan so'ng unga tikuv mashinasi olib berildi.

Bundan quvongan Z.Abdushukurova bor mahoratini ishga solib, mahalla-ko'yidagi xotin-qizlarga turli fasondagi liboslar tikib berishni boshladi. Hozir uni qo'ligul tikuvchi sifatida ko'pchilik taniydi. Eng muhimi, bitta oilaning ro'zg'origa qo'shimcha daromad, baraka kirdi.

– Muzrabot tumanidagi 3-sektor hududidagi 11 ta mahallada ko'makka muhtoj oilalarga amaliy yordam berib kelinishi natijasida ko'plab xotin-qizlar o'zini o'zi band qilishiga erishildi, – deydi tuman IIB JXX HPB ijtimoiy profilaktika guruhi katta inspektori, mayor Jahongir Toshboyev. – Bundan tashqari, oliy o'quv yurtida tahsil olayotgan, ijtimoiy himoyaga muhtoj oilalarning 4 nafar farzandiga shartnoma pullari to'lab berildi. Nogironligi bo'lgan 5 nafar fuqaroga aravacha olib berildi.



Muzrabot viloyatdagi chekka hududda joylashgan tuman sanaladi. So'nggi yillarda tumanida ko'plab korxonalar ishga tushirilayotganiga qaramay, ishsizlar soni hamon mavjud. Bu muammoga barham berish uchun

sektor rahbari, tuman IIB boshlig'i, podpolkovnik O'tkir Shukurov astoydil harakat qilmoqda. Har haftaning payshanba kuni hududidagi mahallalarda sayyor qabullar o'tkazib, odamlarning muammosini kerak bo'lsa, xonadoniga borib

o'rganmoqda. O'rganishlar natijasida 22 nafar fuqaroga imtiyozli kreditlar olishga ko'maklashildi. Ushbu fuqarolar kredit mablag'lari-dan unumli foydalangani holda, tomorqasida issiqxona tashkil qilib, qo'shimcha daromad olmoqda. Ayrimlari tikuv mashinalari xarid qilib, aholiga xizmat ko'rsatmoqda.

Chekka qishloqlardagi ko'chalar yozda changi, qishda loy bo'ladi-gan tuproq ko'chalardan iborat. Shuni inobatga olgan holda, aholiga qulaylik yaratish maqsadida «Oriyat», «Shaffof» va «Mehnatobod» mahallalaridagi ko'chalarga tosh yotqizilmoqda. «Yangi diyor» mahallasidagi eski simyog'ochlar esa yangisiga almashtirib berildi.

Xullas, Muzrabot tumanidagi 3-sektor hududida bu kabi xayrli ishlar davom etmoqda. Ko'makka muhtoj borki, iltimosi, murojaati nazardan chetda qolayotgani yo'q, odamlarning duosini olish, rozi qilish uchun barcha choralar ko'rilyotir. Axir, ko'pning duosi ko'l bo'lur, degan naql ham bejiz aytilmagan.

Feruza RAHMONQULOVA,
o'z muxbirimiz.
Surxondaryo viloyati.





Актуальная тема

НЕ СТАТЬ ЖЕРТВОЙ МОШЕННИКОВ

В социальных сетях все чаще начали появляться посты возмущения о новом виде мошенничества, связанного с рассылкой в Телеграм сообщений и файлов с логотипом Бюро принудительного исполнения (БПИ). О том, как не попасть в сети злоумышленников, мы спросили у специалистов.

– Мошенники становятся изощреннее, – говорит начальник отдела УВД Самаркандской области майор Азамат Юлдашев. – Рассылки-приглашения с официальным логотипом БПИ начались еще в прошлом году. Но пика достигли сейчас. Все больше доверчивых людей скачивают вредоносное приложение и становятся жертвами обмана. Если раньше киберпреступнику нужен был подтверждающий код, то сейчас деньги с банковской карты исчезают, как только скачивается приложение.

А. Юлдашев рассказал, как можно обезопасить себя и заподозрить обман. Если рассматривать данный случай, то аферисты прикрепляют APK-файл, при запуске которого все данные и доступ к смартфону оказываются в их руках. Важно обращать внимание на формат. Обычно приложения БПИ и других госучреждений скачиваются в официальных интернет-магазинах Google Play и др., а также на сайте www.mib.uz. Если ссылка ведет на иной адрес скачивания, то не стоит ее открывать.

По словам руководителя пресс-службы Бюро принудительного исполнения Самаркандской области Жалолитдина Шербоева, рассылкаемая программа «MIBuz» – мошенническая. Схема такова – через поддельные аккаунты людям шлют извещения об имеющемся долге, предлагая его погасить и избежать штрафа.

К сообщению прикреплена ссылка на фейковую платформу. Заполучив конфиденциальную информацию, злоумышленники очищают карты граждан.



На снимке: майор А. Юлдашев (слева) и капитан Б. Сайданпазов

Если вы сомневаетесь в наличии задолженности, ее можно проверить с помощью официального телеграм-бота @mibuzbot либо позвонив по короткому номеру 1107.

По словам специалистов, схемы, как правило, рассчитаны на человеческие слабости, невнимательность.

– Недавно был случай, непохожий на другие, – продолжил диалог майор Азамат Юлдашев. – Парень открыл телеграм-канал от имени крупных бизнесменов и, пользуясь их статусом, «выуживал» деньги. Фотографии он брал в социальных сетях. В результате мошенник присвоил 43 миллиона сумов.

«Лидером» среди киберпреступлений остаются рассылки «Огохлантириш» («Оповещение») с просьбой срочно открыть и

прочитать. Как только человек переходит по ссылке хакеры захватывают данные, сохраненными в компьютере. Нередки случаи присвоения денежных средств с использованием ложных предложений, побуждающих к получению высокого дохода. Это рекламные акции, выигрыши в лотереях, брокерские услуги, участие в обмене валют, онлайн-обучение за границей, доставка товаров по низким ценам через платформу онлайн-торговли и др.

Если вы оставляли объявление на сайтах о продаже товаров, вам могут позвонить мошенники. Они представляются покупателями, предлагают внести залог за товар и отправляют ссылку на фальшивые сайты, сделанные один в один под стилистику платежной системы. С их слов, там нужно ввести номер карты получателя средств и код безопасности, полученный по SMS. Объясняют это тем, что оформят доставку. Как только вы называете номер карты, вам придет SMS о регистрации. Мошенники получают доступ к карте. Деньги могут списать не сразу, например, на следующий день.

В случае если вы заметили какие-либо попытки получить информацию, вызвав изменения в вашем счете, подозрительные платежи, кредиты или депозиты, оформленные на ваше имя, необходимо обратиться в обслуживающий банк и уточнить информацию. Если подозрения не напрасны, надо подавать заявление в ОВД. При этом следует сохранить все скриншоты переписки или звонков. Отдельно записать номер телефона и время звонка. Позвонить в банк и попросить заблокировать карту. Как причину назвать мошенническое списание средств. Карту также можно заблокировать через платежные приложения банка.

Замира БАЛТАЕВА,
соб. корр.

Самаркандская область.



КАК ЗАЩИТИТЬСЯ ОТ ОНЛАЙН-МОШЕННИКОВ

Чтобы добраться до ваших банковских счетов, мошенникам нужны ваши персональные данные и реквизиты карт

Какие схемы используют аферисты?

ОБЕЩАЮТ ЗОЛОТЫЕ ГОРЫ
Опросы за вознаграждение, социальные выплаты или сверхприбыльные инвестиционные проекты. Гарантия быстрого обогащения – признак обмана

ЗАМАНИВАЮТ НА РАСПРОДАЖИ
Огромные скидки и низкие цены могут оказаться мошеннической уловкой


СПЕКУЛИРУЮТ НА ГРОМКИХ СОБЫТИЯХ
Например, объявляют сбор денег на разработку вакцин, обещают вернуть деньги за отмененные рейсы или предлагают получить государственные дотации

МАСКИРУЮТСЯ
Разыгрывают роль продавцов и покупателей на популярных сайтах объявлений

Как обезопасить свои деньги в интернете?

- 1 Установите антивирус и регулярно обновляйте его
- 2 Заведите отдельную дебетовую карту для платежей в интернете и кладите на нее нужную сумму перед оплатой
- 3 Всегда проверяйте адреса электронной почты и сайтов – они могут отличаться от официальных лишь парой символов
- 4 Не переходите по ссылкам от незнакомцев – сразу удалите сомнительные сообщения
- 5 Никому не сообщайте свои персональные данные

AXBOROT TEXNOLOGIYALARI SOHASIDAGI JINOYATLARGA QARSHI KURASHISH



БОРЬБА ПРОТИВ ПРЕСТУПЛЕНИЙ В СФЕРЕ ИНФОРМАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ



BIZ KORRUPSIYAGA QARSHIMIZ

NEKI QILSANG – O‘ZINGGA

Ozodlikni cheklash jazosini o‘tayotgan J.A. sud taqiqlagan bo‘lishiga qaramay, tunda izgiyotgani ma‘lum bo‘ldi. Sharof Rashidov tumani IIB JXX probatsiya guruhi inspektori, kapitan Akmal Abdusattorov tomonidan o‘tkazilgan tekshiruv davomida u kechasi 22:00 dan so‘ng uyda emasligi ayon bo‘ldi.

Inspektor J.A.ning ota-onasi ishtirokida dalolatnoma tuzdi. Er-tasi kuni esa uning o‘zi bilan profilaktik suhbat o‘tkazib, intizomiy ogohlantirish berdi. Yigit boshini eggancha qonunga zid xatti-harakatlarga qo‘l urmaslikka so‘z berdi. Ammo va‘dasi yolg‘on bo‘lib chiqdi. Oradan besh kun o‘tib, turar joyini tunda yana tark etgani ma‘lum bo‘ldi. Bu safar qonunbuzarlikni hudud profilaktika inspektori aniqladi.

Qisqasi, kapitan Akmal Abdusattorov sud belgilagan cheklovlariga rioya qilishni xohlamayotgan bu shaxsga nisbatan qonuniy chora ko‘rilishiga oid hujjatlarni rasmiylashtirishga kirishdi. Voqeaning bunday rivojidan



xavotirga tushgan J.A. qonun himoyachisiga pora taklif qila boshladi. Kapitan pora berish jinoyat ekanini tushuntirdi. U esa taklifidan qaytmadi. Inspektor qancha gapirmasin, 200 AQSH dollari olib kelar vaqtini aytgancha jo‘nab qoldi.

Lekin o‘z kasbiga sodiq kapitan Akmal Abdusattorov halollikni ustun qo‘ydi. 200 AQSH dollari bergan J.A. jinoyat ustida qo‘lga olindi.

Alijon ABDUSATTOROV,
o‘z muxbirimiz.

Jizzax viloyati.

OLOV – TILSIZ YOV

XAVFSIZLIGIMIZ O‘Z QO‘LIMIZDA

Havo haroratining ortib borishi bir qator noqulayliklarni keltirib chiqarishi bor gap. Agar unga e‘tiborsizlik ham qo‘shilsa, jiddiy favqulodda vaziyatlar yuzaga kelishi mumkin. Issiq iqlim sharoitida jonimizga ora kirayotgan konditsioner yoki boshqa elektr jihozlarini qaroqsiz qoldirish, ortiqcha yuklamalarga bardosh bera olmaydigan elektr simlari va kablardan foydalanish ham og‘ir oqibatlariga olib kelishi mumkin.

Shu bois Toshkent shahar Favqulodda vaziyatlar boshqarmasi va uning tarkibiy tuzilmalari harbiy xizmatchilari zimmalaridagi vazifalarni bajarish bilan bir qatorda, havo haroratining ortib borishi natijasida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan salbiy oqibatlarining oldini olish va unga qarshi kurashish borasida ham samarali xizmat qilishmoqda. Xususan, aholi bilan o‘tkaziladigan targ‘ibot-tashviqot

ishlarida har bir fuqaroning xavfsizligi, eng avvalo, o‘z qo‘lida ekanligi, buning uchun yong‘in xavfsizligi talablariga qat‘iy rioya etishlari lozimligi tushuntirilmoqda.

Ayni maqsadda Yunusobod tumani FVB va «Metropoliten»da YOXTB harbiy xizmatchilari tomonidan «Toshkent metropoliteni» DUKga qarashli «Minor» bekatida yong‘in o‘chirish amaliy taktik mashg‘ulotlari o‘tkazildi.

Mashg‘ulotlar davomida ishchi-xizmatchilar favqulodda holat ro‘y berganda va yong‘in kelib chiqqanda uni bartaraf etish, fuqarolarni evakuatsiya qilish, jabrlanganlarga birinchi yordam ko‘rsatish mashqlarini bajardilar. Alohida e‘tibor fuqarolar bilan ishlashga qaratildi. Favqulodda vaziyat va yong‘in yuz berganda sarosimaga tushmasdan, bekatdagi fuqarolarni tashqariga yo‘naltirish va olib chiqish ishlari bajarildi.

Mamirjon FIRMATOV,
katta serjant.

YOZ – O‘TMOQDA SOZ

YOSHLAR BILAN UCHRASHUV

Viloyat IIB boshlig‘i, podpolkovnik I.Tursunov Vobkent tumanidagi «Porloq kelajak» bolalar oromgohida tashkil etilgan «Yangi O‘zbekistonning vatanparvar yoshlari lageri» o‘quv yig‘iniga jalb etilgan 14–16 yosh toifasidagi voyaga yetmaganlar bilan uchrashdi.

O‘quv yig‘inida yosh toifasiga ko‘ra 25 nafardan 4 guruhga bo‘linib, ular bilan tasdiqlangan o‘quv jadvali va kun tartibi asosida IIV Akademiyasi o‘qituvchi-murabbiylari tomonidan mashg‘ulotlar olib borildi.

Shu kuni 16 yoshli bolalardan tarkib topgan jamoalar o‘rtasidagi o‘tkazilgan «Zakovat» intellektual o‘yini g‘oliblari boshqarma boshlig‘i tomonidan diplom hamda qimmatbaho sovg‘alar bilan taqdirlandi.

J.BEKMURODOV,
podpolkovnik.

Buxoro viloyati.



DIQQAT, E‘LON!

O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi «Texnik ko‘maklashish markazi» davlat unitar korxonasi quyidagi lavozimlarga malakali mutaxassislarni tanlov asosida ishga qabul qiladi:

Moliyaviy ta‘minot guruhiga:

- ▶ yetakchi buxgalter;
- ▶ rejalashtiruvchi-iqtisodchi.

Yordamchi ishchilar guruhiga:

- ▶ ombor mudiri;
- ▶ ekspeditor.

Optik tolali tarmoqlarni joriy etish guruhiga:

- ▶ Telekommunikatsiya tarmog‘i tizimlari muhandisi.

Telekommunikatsiya tarmoqlari va videokuzatuv joriy etish guruhiga:

- ▶ Telokommunikatsiya muhandisligi muhandisi.

Aloqa, maxsus texnika vositalarini o‘rnatish va texnik xizmat ko‘rsatish guruhiga:

- ▶ aloqa muhandisi.

Ma‘lumotlar uzatish tarmoqlarini joriy etish bo‘limiga:

- ▶ bo‘lim boshlig‘i;
- ▶ dasturiy ta‘minot bo‘yicha bosh mutaxassis;
- ▶ kompyuter grafikasi dizayneri;
- ▶ veb-dizayner.

Operatsion tizimlar va periferiya qurilmalariga dasturiy-texnik xizmat ko‘rsatish bo‘limiga:

- ▶ kompyuter bo‘yicha bosh mutaxassis;
- ▶ kompyuter texnikasi xizmati bo‘yicha muhandis.

Arxiv ishlarini elektronlashtirish guruhiga:

- ▶ ma‘lumotlar bazasini kiritish operatori;
- ▶ kompyuter operatori;
- ▶ hisoblash texnikasi operatori.

Ma‘lumotlarni qayta ishlash markazlariga dasturiy-texnik xizmat ko‘rsatish bo‘limiga:

- ▶ bo‘lim boshlig‘i;
- ▶ dasturiy ta‘minot bo‘yicha bosh mutaxassis;
- ▶ ma‘lumotlar bazasini boshqarish bo‘yicha mutaxassis;
- ▶ ma‘lumotlar bazasi ma‘muri.

Manzil: Toshkent shahar, Yakkasaroy tumani, Yunus Rajabiy ko‘chasi, 1-uy.

Mo‘ljal: Kosmonavtlar metro bekat, Ichki ishlar vazirligi binosi.

Murojaat uchun telefonlar: (71) 231-37-81,
(71) 231-37-32

PATRUL-POST XIZMATI

ODDIY YIGIT

Andijon viloyati IIB Jamoat xavfsizligi xizmati jamoat tartibini saqlash boshqarmasi patrul-post xizmati batalyoni 5-otryad guruh komandiri, katta serjant Nuriddin Abdurazzoqov o'z kasbini juda sevadi va odamlar uchun foydali ish bilan shug'ullanayotganini his qiladi.

PPX xodimlarining ishiga qarab odamlar butun ichki ishlar organlarining faoliyatiga baho beradi, chunki bu bo'linma xodimlari doimo odamlar orasida.

– Xodimlar xizmatga kelganlarida, ularga xizmatga kirishishdan oldin ko'rsatmalar berilib, vazifalar qo'yiladi va tezkor vaziyat tushuntiriladi, – deydi katta serjant N. Abdurazzoqov. – Shundan so'ng har kim o'z yo'nalishi bo'ylab faoliyatini davom ettiradi.

Xizmat jarayoni paytida turli voqealar ro'y beradi. Vaziyatdan kelib chiqib qayerdadir suhbat olib borish, psixolog ro'lida bo'lish va yarashtirishning o'zi yetarli bo'ladi.

Ba'zan tegishli materiallar, tushuntirishlar, ariza olishga to'g'ri keladi va agar fuqarolar bizning yordamimizga muhtoj bo'lmasa, materiallarni navbatchilik qismiga topshirish mumkin.

Nuriddin o'z tajribasi bilan beminnat o'rtoqlashgan, patrul-post xizmati sir-asrorlarini o'rgatgan ustoz, katta serjant Yorqinbek Maqsudovni doimo minnatdorlik bilan eslaydi. Bugun uning o'zi ham murabbiy. Uning shogirdlari,



safdorlar Hamidullo Xolmatov va Izzatillo Yaxshiboyev PPX bo'linmalarida xizmat qilmoqda.

– Biz ham oddiy odammiz, shunchaki harbiy libos kiyganmiz. Barcha insonlar kabi ovqatlanamiz, uxlaymiz, deylik, to'y-ma'rakaga boramiz. Bu

yerga faqat chempionlarni to'plashmaydi! Aksariyat xodimlar atrofdegilar kabi oddiy insonlar, – deydi N. Abdurazzoqov.

Boris KLEYMAN,
o'z muxbirimiz.

Andijon viloyati.

Mulohaza

BIR KUNLIK HASHAM MASHMASHASI

Joriy yilning iyun oyida Kegeyli tumanida bo'lib o'tgan nikoh to'yida yoshlarning bir nechta avtomashinada tartibsiz harakatlanib, poyga uyushtirgani ijtimoiy tarmoqlarda keng tarqaldi. Buning natijasida bir nechta transport vositalari o'zaro to'qnashib, ta'mirtalab holga keldi. Bu o'z navbatida tarmoq foydalanuvchilari orasida katta muhokamalarga sabab bo'lib, ularni yoqlab chiqqanlar hamda salbiy fikr bildirganlar o'rtasida tortishuvlarni keltirib chiqardi.

Shu o'rinda ta'kidlash joizki, so'nggi paytlarda nafaqat mazkur to'y, balki shunga o'xshash ba'zi oilaviy tadbirlar, tug'ilgan kun kabi marosimlarni dabdabavoqlik ila o'tkazib, uni ijtimoiy tarmoq orqali o'zgalarga ko'z-ko'z qilish bilan bog'liq holatlarga tez-tez guvoh bo'lmoqdamiz. Ayniqsa, nikoh to'ylaridagi uzundan-uzun avtomashinalar korteji, «qiz olib qochish» marosimi, to'y bilan bog'liq turli rasm-rusumlar, yubiley larni nishonlashda shovshuv qilib, ortiqcha isrofgarchilikka yo'l qo'yayotganlarni bunga misol qilishimiz mumkin.

Albatta, to'y xalqimiz uchun quvonchli onlar nishonlanadigan, yaqinlar bilan xursandchilikni



bo'lishish maqsadida qilinadigan marosim hisoblanadi. Shu bois «yiqqan-terganing to'yga buyursin» degan yaxshi niyat bildiriladi. Ammo, jamiyatimizda uning ma'nosini noto'g'ri talqin qilib, xatoga yo'l qo'yayotgan kishilar soni ortib borayotgani achiqarli holdir.

Ayrim fuqarolar bir kunlik to'yga sarflanadigan katta xarajatlar bois qarzga botib, qarzini uzish uchun uzoq muddatga chet elga ishlagani ketayotganligi, hattoki ajrimlarga sabab bo'layotganligi ham sir emas. Bundan 100 yillar ilgari jadidlar harakatining ko'zga ko'ringan vakillaridan biri Mahmudxo'ja Behbudiy ham «to'y va ta'ziya singari ikki dushmanimiz oyog'imizga tushov bo'lib turibdi. Unga sarf qilinaturg'on oqchalarimizni biz, turoniyalar, ilm va din yo'lig'a sarf etsak, ovrupoyilardek taraqqiy etarmiz va o'zimiz-da, dinimiz-da obro'y va rivoj topardi» deya ta'kidlagan edi.

Bundan tashqari, Prezidentimiz 2017-yilda ziyolilar bilan o'tkazgan uchrashuvda fuqarolar tomonidan bildirilayotgan ko'plab takliflar qatorida, to'y-ma'rakalarni ixchamlashtirish bo'yicha qaror ishlab chiqarilishini ma'lum qilgandi. Shundan kelib chiqqan holda, Oliy Majlis palatalarining 2019-yil 14-sentabr kuni qo'shma qarori qabul qilinib, undan aniq vazifa va masalalar o'rindi.

To'g'ri, o'tgan yillar davomida qo'shma qaror talablarini bajarish yuzasidan bir qancha ishlar

amalga oshirildi. Ammo so'nggi paytlar ijtimoiy tarmoqlarda yuqorida ta'kidlab o'tilganidek holatlarning sodir bo'layotgani ushbu masalaning biroz e'tibordan chetda qolayotganini anglatadi. Shunday ekan, bu boradagi targ'ibot-tashviqot ishlarini yana qo'lga olish zaruriyati yuzaga keladi. Ushbu talabdan kelib chiqqan holda, ichki ishlar organlari faxriylari tomonidan joylarda tushuntirish ishlari olib borilmoqda. Xususan, Nukus tumanida yashovchi faxriylar tomonidan tuman Xalq qabulxonasi, Nuroniylar kengashi, yoshi ulug' kishilar bilan birgalikda ilk bora «Darsan» makon fuqarolar yig'ini uchrashuv o'tkazildi. Unda isrofgarchilikning oldini olish, ortiqcha to'y marosimlarini qisqartirish, milliy urf-odatlarimizga to'g'ri kelmaydigan odatlardan voz kechish, unga sarflanadigan xarajatlarni yosh oila zaruriyatiga ishlatish to'g'ri bo'lishi kabi masalalar muhokama etilib, ma'lum muddatdan so'ng uning ijrosi o'rganildi.

«Darsan tajribasi» tumandagi boshqa hududlarda ham davom ettirilmoqda. Bu tashabbusni keyinchalik Nukus tumani tajribasi sifatida respublikaga namuna sifatida joriy etish rejalashtirilgan. Bundan tashqari, bu haqda ommaviy axborot vositalarida chiqishlar qilib borilmoqda. Ushbu chora-tadbirimizning mazmun-mohiyatini aholi ham to'g'ri qabul qilmoqda.

Xulosa o'rnida aytadigan bo'lsak, to'y beradigan ham, boradigan marosimlar ko'payib ketdi, deya aytib yurganlar ham o'zimiz, aytganga quloq solmaydi deyotganlarimiz esa o'z farzandlarimiz. Agar quda-anda, qarindoshlar bilan to'ylarni ixcham va kamxarj qilib o'tkazishga kelishsak, farzandlarimizga pand-u nasihat bilan tushuntira olsak, bizga ularni tartibga solish uchun alohida qaror yoki farmonni kutishga zarurat qolmaydi.

Qdirboy GULMANOV,
Iste'fodagi podpolkovnik.



QILMISH – QIDIRMISH

TUNGI TALONCHILAR

Hech qayerda ishlamaydigan Botir Tog'ayev (ismi-shariflar o'zgartirildi) ko'chada eski tanishlari, urganchlik To'liq Gulmurodov va Islom Rashidovni uchratib qoldi.

– Puling bo'lsa, mazza qilib maishatda yashaysan, cho'ntaging quruq bo'lsa, daydi itday ko'cha sang'ib yuraverasan, – deya gap boshladi Botir salom-alikdan so'ng. – Shuning uchun pul topish yo'llarini izlashimiz kerak.

– Qanday yo'li bor? – qiziqib so'radi To'liq.
– Tunda «ov»ga chiqamiz.

Anchadan buyon o'ylab yurgan rejam bor.

– Xo'sh, eshitaylik-chi... – gapga qo'shildi Rashid.

– Xullas, Xonqadagi bir do'konga «tushamiz». Xaridorlar ko'pligiga qaraganda u yerda mahsulotlar ancha

serob. Daromad ham shunga yarasha bo'ladi.

– Yaxshi taklif, – dedi To'liq uning so'zlarini diqqat bilan tinglarkan. – Biz nima qilishimiz kerak?

– Asosiy ishni o'zim bajaraman, – deya tushuntira boshladi Botir. – Sanoqli daqiqalar ichida do'konga kirib, u yerni «tozalab» chiqaman. Sizlarning vazifangiz – atrofni hushyorlik bilan kuzatib turish.

– Do'konga qanday kirasan?

– Bu mening ishim. Agar biz mana shu «reja»ni amalga oshira olsak, keyingi ishlarimiz ancha oson kechadi.

Ertasi kuni ular tungi soat birlarda Urganch shahridagi «Legion» kompyuter o'yin-gohida uchrashib, avvaldan rejalashtirilgan jinoyatni yana bir bor muhokama qilib olishdi. So'ngra To'liqning tegishli bo'lgan «Spark»da Xonqa tumanidagi oziq-ovqat do'koniga yetib kelishdi va bir necha daqiqa yon-atrofnı kuzatib o'tirishdi. Yarim tun bo'lgani uchunmi,

atrofda hech kim ko'rinmadi. Mashinadan tushgan Botir do'kon eshigining qulfini buzdi-da, ichkariga kirdi. Sheriklari esa kelishilganidek mashinada o'tirib, atrofni kuzatishdi.

Xullas, tungi talonchilar xonqalik yakka tadbirkor S.Ro'zmetovaga tegishli oziq-ovqat do'konidan salkam 8 mln. so'mga yaqin pulni olib ko'zdan g'oyib bo'lishdi.

Ish xamirdan qil sug'urgandek silliq bitgani Botir va uning sheriklarini be-had quvontirdi. Ertasi kuni ular tungi klubda o'tirishdi, maishat qilishdi.

Tungi talonchilarning xursandchiligi uzoqqa bormadi. Xonqa tumani IIB tezkor xodimlari tomonidan olib borilgan sa'y-harakatlar natijasida ularning qilmishi fosh bo'ldi. Botir hamda uning jinoiy sheriklari qo'lga olindi.

Xudoybergan JABBOROV,
o'z muxbirimiz.

Xorazm viloyati.

ODAM SAVDOSI – OG'IR JINOYAT

DUBAYGA «SAYOHAT» O'XSHAMADI

Nazira (ismlar o'zgartirildi) yigirma yoshda. Oqoltin tumanida yashovchi qiz ish topish maqsadida Guliston shahriga kelib, kafelardan biriga ofitsiant bo'lib joylashdi. Maoshi yomonmas. Uning chaqqonligi, mijozlarga muomalasi, o'z ishiga mas'uliyati kafe rahbariyatiga ma'qul keldi.

Bu yerga boshqa niyatda kelib yurgan shaxslar ham bor edi. Doimiy mijozlardan bo'lgan Charosxon ulardan biri. O'ttiz yoshlardan oshgan, o'ziga bino qo'ygan ushbu xonim Nazira bilan dugona bo'lishga harakat qila boshladi. Qizning chiroyi, soddaligi unga ma'qul kelgandi.

Charos o'zini tadbirkor sifatida tanishtirdi. Dubaydan yuk olib kelib sotishini, bozori chaqqonligini aytib, Nazirani o'ziga jalb qila boshladi. Gap orasida uni ham biznesiga sherik qilishi mumkinligini qistirib o'tdi. Nazira to'rga ilina boshladi. Charos uni Amirliklarga ishga joylashtirishini aytganida, qiz juda quvondi. Axir, quvonmay bo'ladimi! Charosning aytishicha, Dubaydan mollarni yuborib tursa bo'ldi, unga yaxshigina ulush ajratiladi.

Nazira tezda xorijga chiqish huquqini beruvchi pasportni to'g'riladi va kelishilgan kuni Charosga keltirib berdi.

Guliston shahar IIB tezkor xodimlari tomonidan Charos anchadan beri kuzatuvga olingan, uning jinoiy xatti-harakatlari izidan tushilgandi. Bu ayol anchadan beri sheriklari bilan qizlarni Dubayga fohishalikka yuborish tarmog'ini yaratganlikda

gumon qilinayotgan edi. Tezkor guruh yetarlicha dalillar to'plagach, qo'shmachi ayolni jinoyat ustida qo'lga olish operatsiyasi ishlab chiqildi.

Bu orada Charos Naziraga aviachipta rasmiylashtirib, uni samolyotda o'tqazish harakatida edi. Uning bu «mehribonligi» Nazirada ham shubha uyg'ota boshladi. Biror so'm pul sarflamay Dubayga yetib borish, mo'may pul topish shunchaki ertakka o'xshab ketayotgandi. Shu bois ikkilana-ikkilana huquq-tartibot organlariga murojaat qildi.

Bu esa oldin ham bir necha ayolning nomusiga zomin bo'lgan, hayotini ostin-ustun qilgan Charosni qo'lga olish uchun yana bir asos bo'lib xizmat qildi.

... «Sirdaryo» muntazam yo'l-patrul maskanida Guliston shahridan kelayotgan oq rangli «Gentra» avtomobili to'xtatildi. Tezkor xodimlar Nazirani aeroportga olib ketayotgan Charosni qo'lga olishdi. Uning sumkasidagi Naziraning pasporti, aviachipta ashyoviy dalil sifatida olindi.

Aniqlanishicha, ushbu

xonimning ismi Charos emas, Guliston shahri 3-mavzesida yashovchi 1987-yilda tug'ilgan N.N. ekani ma'lum bo'ldi. U muqaddam fohishaxona saqlash bilan bog'liq jinoyati uchun ham sudlangan bo'lib chiqdi. Rad etib bo'lmas dalillar oldida «Charos» barcha qilmishlarini tan oldi.

Abdurahmon MUSTAFOQULOV,
o'z muxbirimiz.

Sirdaryo viloyati.



SALOMATLIK SABOQLARI

ENERGETIK ICHIMLIKLAR – SOG'LIK KUSHANDASI


Xalqimiz azaldan jismonan kuchli bo'lish uchun yuqori kaloriyali taomlardan iste'mol qilishni tavsiya qilgan. Lekin keyingi yillarda turli energetik stimulyatorlar hayotimizga kirib kelgach vaziyat o'zgardi. Keyingi paytda yoshlar orasida energetik ichimliklarga qaramlik kuchaydi. Taurin, kofein, shakarining yuqori darajadagi konsentratsiyasi organizmga rostdan ham quvvat beradimi?

Yaratilish tarixi

Ilk quvvat ato etuvchi eliksir XII asrda Germaniyada yaratilgan. Ammo unchalik mashhur bo'lmadi. XX asrning birinchi yarmida Angliyalik Smit-Klein Bichamon sportchilar jamoasi uchun o'ta kuchli quvvat beruvchi ichimlik tayyorladi. Dastlab ushbu ichimlikni ichgan shaxslar ommaviy zaharlangan. Ajablanarlisi, mazkur holat Britaniyada energetik ichimliklarga bo'lgan qiziqishni battar oshirgan. O'tgan asrning oltmishinchi yillarida yaponlar Bichamon yaratgan texnologiyadan foydalangan holda yangi turdagi energetik ichimlikni yaratdi-yu, Yaponiyani ushbu mahsulotning yirik eksportoriga aylantirdi. Yevropada tetiklantiruvchi ichimliklar ishlab chiqarish saksoninchi yillarda yo'lga qo'yilgan. Avstriyalik Ditrix Mateshes tomonidan yaratilgan ichimlikka «Ped Boll» nomi berildi. Ushbu ichimlik bozorda katta talabni keltirib chiqardi, bu esa shu turdagi mahsulotlarning ko'lami oshishiga sabab bo'ldi.

Ichimlik rostdan tetiklantiradimi?

Energetik ichimliklarning foydasi va zarari ularning tarkibiga bog'liq. Ichimlikka qo'shiladigan kofein aqliy va jismoniy stimulyator sifatida keng qo'llaniladi. Aslida bir piyola qora choy yoki qahva ichganingizdan so'ng besh-o'n daqiqada o'zingizni bardam, kuchli his qilasiz. Kofein



yurak urishini tezlashtiradi va asab tizimiga ta'sir ko'rsatadi. Ushbu moddani doimiy ravishda iste'mol qilish uyqusizlik, asabiylashish, depressiyaga olib keladi. Eng yomoni, insonda yurak-qon tomir tizimi bilan bog'liq muammolar kuzatiladi. Agar kofeinni belgilangan me'yordan ortiq darajada iste'mol qilsangiz, qon bosimining ortishi, hatto o'limga olib kelishi mumkin.

Energetik ichimliklarda muayyan miqdorda levokarnitin va glyukuronolakton bor. Levokarnitin metabolik jarayonlarni tezlashtiradi va erkaklarda reproduktiv funksiyaga foydali ta'sir ko'rsatadi. Glyukuronolakton esa zararli moddalarni yo'q qilishga yordam beradi. Lekin organizmga zararsizligi isbotlanmagan.

Salomatlik kushandasi

Tetiklantiruvchi ichimlik energiya beradi, deya ishonish xato. Aslida u yanada charchoqni keltirib chiqaradi. Shu turdagi ichimliklarni ko'p miqdorda iste'mol qilish asab va

yurak-qon tomir kasalliklariga olib keladi. Buyrak usti bezlarini doimiy ravishda adrenalin ajratishga majburlagan holda energetik ichimlik barcha a'zolar va tizimlarning faoliyatini sun'iy ravishda rag'batlantiradi. Ta'siri pasaygach, odam o'zini yanada charchagan his qiladi. Me'yordan ortiq darajada ichilganida qon tarkibida shakar miqdori ortib, qon bosimi ko'tariladi. Bu esa gipertonik inqirozga olib kelishi mumkin. Energetik ichimliklar organizmda semirish keltirib chiqaradi. U oshqozon osti bezlarining funksiyalarini buzadi. Natijada doimiy ravishda shunday ichimlik iste'mol qiluvchi shaxslarda qand kasalligi kuzatilishi mumkin.

Ulug'bek NADIROV,
Sirdaryo viloyati IIB Tibbiyot bo'limi boshlig'ining o'rinbosari, leytenant.

TABIATNING O'ZI TABIB

Qalampirmunchoq garchi ayrim mamlakatlar oshxonasida ziravor sifatida ishlatilsa-da, shifobaxshligi tufayli zamonaviy tibbiyot va xalq tabobatida ham keng qo'llaniladi.

* Antiseptik, og'riq qoldiruvchi, bakteriyalarni o'ldiruvchi hamda mikroblarga qarshi kurashish ta'sir kuchiga ega. Undagi efir moyi asab tizimini tinchlantirib, stress holatini yo'qotadi, nevrozni davolaydi.

* Zararlangan og'iz shilliq pardasi, kariyes, parodontoz, pulpitda yallig'lanishni yo'qotadi. Qadimda qalampirmunchoqdan tayyorlangan kukunni milklarga ishqash yoki shunchaki quritilgan g'unchasini chaynash yordamida tish og'rig'i bartaraf etilgan.

* Qalampirmunchoqdan olingan moy yiringli tish og'rig'ida juda foydali. U og'riqni kamaytirish bi-

QALAMPIRMUNCHOQ



lan birga, infeksiya tarqalib ketishining oldini oladi.

* Quloq og'rig'ida qalampirmunchoq va kunjut moylari aralashtiriladi. Ishlatishdan avval ilitib, 2-3 tomchidan har ikkala quloqqa tomiziladi.

* 5-6 dona qalampirmunchoqni 30 ml suvda qaynatib, kuniga uch mahal asal bilan birga balg'am

ko'chiruvchi vosita sifatida foydalanish mumkin.

* 6-7 dona qalampirmunchoqni 15 gr arpabodiyon urug'i bilan yarim litr suvda to'rtidan bir qismi qolguncha qaynatiladi. Shakar qo'shib, shamollash va tumovda ichiladi.

* Qalampirmunchoqni osh tuzi bilan chaynalsa, yo'talga shifo bo'ladi.

* Oshqozonda kislotada-rajasi yuqori bo'lgan insonlar qalampirmunchoqni so'rib yursa, u me'yoriy holatga keladi.

* Hazm jarayonini yaxshilash uchun ovqatlanishdan bir necha daqiqa oldin bir choyqoshiq asalga bir chimdim maydalangan qalampirmunchoq qo'shib iste'mol qilish kerak.

* Qalampirmunchoq va xantal moyining bir necha tomchisini aralashtirib ichish bo'g'imlar og'rig'i va mushaklar spazmidada foyda beradi.

* Sil kasali (tuberkulyoz) da ro'y beradigan notekis yo'tal, bronxit va astmani davolash uchun qalampirmunchoq moyi va sarimsoq qo'shilgan asalni aralashtirib, har kuni uyqudan oldin iste'mol qilish kerak.

* Govmichchani davolashda qalampirmunchoqni suvda qaynatib, zararlangan joyga bosiladi.

* Og'izdan yoqimsiz hid kelganda ham qalampirmunchoq chaynash juda yaxshi samara beradi.

Unutmang, qalampirmunchoq 2 yoshgacha bo'lgan bolalarga, gipertoniyadan aziyat chekayotganlarga va homilador ayollarga tavsiya etilmaydi. Yuqori kislotali gastrit, oshqozon yarasi, shuningdek, madorsizlik va zo'riqishda ham qalampirmunchoqdan foydalanmagan ma'qul.

Adolat FAYZIYEVA
tayyorladi.

Tavsiyalarga amal qilishdan oldin shifokor bilan maslahatlashing.



Безопасность на дорогах



ЭТО КАСАЕТСЯ ВСЕХ

Управление безопасности дорожного движения МВД Республики Каракалпакстан организовало пресс-тур для местных журналистов и блогеров.

На мероприятии подполковник Салауат Казбеков рассказал о проводимой работе по предупреждению ДТП, обеспечению безопасности дорожного движения, привел статистику за текущий период нынешнего года.

Несмотря на принимаемые меры, количество ДТП, совершенных на территории республики, выросло на 5,7 процента – со 175 до 185. 41,1 процента случаев связаны с наездом на пешеходов. В результате на дорогах погибли 32 человека, еще 64 получили телесные повреждения разной степени тяжести.

приятия по пропаганде ПДД больше вовлекаются несовершеннолетние. Внимание уделяется повышению действенности пропаганды.

меряющих тоннаж большегрузных машин, следующих по трассе А-380 Гузар – Бухара – Нукус – Бейнеу.

– Порой секунды решают исход нештатной ситуации. Невнимательность, спешка или же игнорирование правил обходится слишком дорого. Об этом свидетельствует печальная статистика. В



Второе место по количеству нарушений – превышение водителями установленного скоростного режима – 31,4 процента.

Исходя из анализа, в профилактические меро-

Журналисты и блогеры получили ответы на интересующие их вопросы. Участники пресс-тура ознакомились с ходом оборудования специальных автомобильных весов, из-

целях обеспечения безопасности дорожного движения ведем установку радаров, светофоров, дорожных знаков. До конца года планировалось установить около 700 знаков, но уже за первое полугодие установили более 900, – говорит старший инспектор пресс-группы управления майор Калбай Муратов. – В пропаганде ПДД формировании у участников дорожного движения взаимного уважения рассчитываем на содействие средств массовой информации.

Азамат ПИРНИЯЗОВ, соб. корр.

Республика Каракалпакстан.

MUNAJJIMLAR BASHORATI

(5-avgustdan – 11-avgustgacha)



Qo'y. Bu davrda notanish kishilar bilan muloqot qilishingizga to'g'ri kelsa, sirlaringizni to'kib solishdan saqlaning. Ichki his-tuyg'ularni o'zingizdan boshqasiga ishonmang. Moliyaviy muammolar bu hafta sizni bezovta qilmaydi, aksincha, barcha ishlaringiz osongina baroridan keladi.



Buzoq. Haftaning ilk kunlari moliyaviy ahvolingiz yaxshilanadi. Bu pallada sizni yangi taassurotlar va yorqin his-tuyg'ular kutmoqda. Ham shaxsiy masalalar, ham ish yuzasidan ko'p joylarda bo'lishingiz kutilmoqda. Faqat o'z vaqtida dam olishni, salomatlikka e'tibor qaratishni ham unutmang.



Egizaklar. O'tib ketgan ko'ngilsiz voqealarni yodga olib qayg'uga botishni to'xtating. Dunyoga go'zal nigoh bilan boqing. Muhim hujjatlarga imzo qo'yishda sergaklikni qo'ldan bermang. Salomatlikni yanada mustahkamlash uchun kechqurunlari uzoq vaqt piyoda sayr qilish tavsiya etiladi.



Qisqichbaqa. Bu hafta ishda ham, shaxsiy hayotda ham ko'pgina jiddiy to'siqlarga duch kelishingiz mumkin. Shuning uchun hafta boshidan bunga ruhan tayyor turishingiz kerak. Dunyoga va hayotga real ko'z bilan qarang, shuning o'zi yetarli. Siz albatta to'siqlarni mardona yengib o'tasiz.



Arslon. Bu hafta uchun tuzgan rejalaringsizning aksariyati amalga oshishi mumkin. Hammasi sizga yaqin insonlarga, ularning qo'llab-quvvatlashiga bog'liq. Kelib tushadigan moliyaviy takliflarga jiddiy ahamiyat qaratib. Oilaviy hayotda esa, aksincha, ikir-chikirlarga e'tibor qilmay, ko'proq mehr ulashishga harakat qiling.



Parizod. Haftangiz unumli kechishi kutilmoqda. Agar kuzatuvchanlikni oshirsangiz, ish joyingizda martabangiz yuqorilashi ehtimoli yuksak. Bu davrda sira qiynalmasdan ro'zg'or hamda moliyaviy muammolarni bartaraf etishga erishasiz. Biroq salomatlikka e'tibor qaratishni ham unutib qo'ymang.



Tarozi. Siz uchun hafta biroz og'ir kechadi. Do'stlar yoki hamkasblar aybi bilan noxush vaziyatlarga tushib qolishingiz mumkin. Bunday holatlarda har jabhada mustaqil bo'lish tavsiya qilinadi. Bu yaqinlaringiz bilan munosabatlar jipslashuviga sezilarli ta'sir ko'rsatadi.



Chayon. Ko'ngilsizliklarni chetlab o'tish niyatida bo'lsangiz, yo'l-yo'lakay uchraydigan maydachuyda noqulayliklarga ham e'tibor bering. Ishxonadagi yumushlarni bajarib, yuqori natijaga ega bo'lishni xohlasangiz, astoydil, ter to'kib ishlashingizga to'g'ri keladi.



O'qotar. Bu davr siz uchun juda yoqimli va quvonchli kechadi. Faqat pul masalasida tavakkalchilikka yo'l qo'ymang. Juma kundan keyin ish joyida tushunmovchiliklar, moliyaviy qiyinchiliklar va oilada muammolar kuzatilishi mumkin.



Tog' echkisi. Dushanba va seshanba shaxsiy hayotga e'tibor qaratish uchun qulay palla. Keyingi kunlar odatdagidek bir xilda va zerikarli o'tishi, na yaxshi, na yomon xabar ulashmasligi kutilmoqda. Hafta so'ngi og'ir keladi.



Qovg'a. Haftangiz juda ajoyib boshlanadi va siz har bir vaziyatni o'z xohishingiz bo'yicha tashkil etish imkoniga ega bo'lasiz. Asosiysi, qo'rqmang. Dadil va mardona oldinga qadam tashlang.



Baliq. Hafta boshidan hech kim bilan bahslashmang. Bu katta janjalga aylanib ketishi mumkin. Ayniqsa, birovlariga kelajak rejalaringsizni bildir ko'rmang. Yangi ishlarga qo'l urishdan oldin aqlingizni va kuchingizni to'plab olishingiz zarur bo'ladi. Eng quvonarli, oilaviy hayotingizda sokinlik va baxt hukm suradi.

ИИБ Малака ошириш институти раҳбарияти, шахсий таркиби ҳамда Фахрийлар кенгаши институт бошлиғи, полковник Олимжон Аҳмедовга отаси
Турсунбой АҲМЕДОВнинг
вафот этганлиги муносабати билан чуқур ҳамдардлик изҳор этади.



«GULISTON»DA BOLALARNING SHODON KULGISI



Yoz faslining hozirgi qaynoq kunlarida oromgohlar bolajonlarni o'z bag'riga olgan. Yurtimizning bahavo va sokin go'shalaridan biri Shahrisabz tumanida joylashgan viloyat IIBga qarashli «Guliston» bolalar oromgohi uchinchi mavsumga ichki ishlar organlari xodimlarining 120 nafar farzandini qabul qilgan. Ular orasida boquvchisini yo'qotgan va kam ta'minlangan oilalar farzandlari ham bor.



Oromgohda bolalar maroqli hordiq chiqarishi uchun qator qulayliklar yaratilgan. Dam olish, yuvinish xonalari, oshxonalar yangi anjomlar bilan to'ldirilib, kechki dam olish maydonchalari zamonaviy uslubda jihozlangan. Qolaversa, bu yerda tennis, futbol, shaxmat, shashka, voleybol, basketbol bo'yicha sport to'garaklari, adabiy va san'at to'garaklari ishlab turibdi.

– Oromgohimizda besh yuzga yaqin badiiy kitoblar jamlangan kutubxona bor. Bolalar internetga ulangan kompyuterlardan ham foydalanishlari mumkin, – deydi oromgoh direktori Ixtiyor Ro'ziyev. – Viloyat IIB Tibbiyot bo'limi poliklinikasidan birlashtirilgan shifokor va hamshira o'g'il-qizlarning sog'lig'ini nazorat qilib boryapti.

«Guliston» oromgohida bolalar o'rta-sida turli tanlovlar, sport musobaqalari o'tkazish bilan birga, vaqti-vaqti bilan tabiat qo'yniga sayohat uyushtirilmoqda. Bularning barchasi ularning maroqli va mazmunli dam olishida katta ahamiyat kasb etishi shubhasiz.

Sodiq RAHIMOV,
o'z muxbirimiz.

Qashqadaryo viloyati.

JURNALNI VARAQLAGANDA...

«Qalqon-Щит» jurnalining 2024-yil iyul soni nashrdan chiqdi. Undan ichki ishlar organlari tizimida amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar hamda sohada xizmat qilayotgan xodimlar haqidagi materiallar o'rin olgan.

«Xizmat samaradorligi yuksalib, ijobiy ko'rsatkichlarga erishilmoqda» sarlavhali maqolada Marg'ilon shahar IIB xodimlarining jamoat tartibini saqlash, jinoyatchilikni jilovlash, huquqbuzarliklarning oldini olish borasidagi mashaqqatli faoliyati xususida hikoya qilinadi.

«Sifatsiz oziq-ovqat mahsulotlari bilan bog'liq turli salbiy holatlar kunda-kunora aniqlanayotgani haqidagi xabarlar ijtimoiy tarmoqlarda ko'p tilga olinmoqda. Ayniqsa, yoz mavsumida bu masala naqadar dolzarb ekanligi yaqqol

ko'zga tashlandi». Ana shunday satrlar bilan boshlanuvchi «Sifatsiz mahsulot – salomatlikka ziyon» nomli maqolada Toshkent shahar IIBB JTSB Karantin tadbirlarini ta'minlash guruhi faoliyati bilan tanishasiz.

Bundan tashqari, «Baxt kaliti», «Bor bo'li, oqibat!», «Do'mbirobdob do'mbiraga bog'liqmi?», «Buxoro zindoniga kimlar qamalgan?» kabi maqolalar ham sizda katta qiziqish uyg'otadi deb umid qilamiz. Jurnal sahifalarida yana boshqa ko'plab boshqa mavzulardagi maqolalarni ham mutolaa qilishingiz mumkin.



Postda
Ha nocy

MUASSIS:

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
ICHKI ISHLAR VAZIRLIGI**

Bosh muharrir –

polkovnik
Bernora SADIKOVA

Bosh muharrir o'rinbosarlari –

podpolkovnik Azizjon FAYZIYEV
kapitan Aziza BOHODIROVA

Mas'ul kotiblar –

Jahongir SHAROFBOYEV
Erkin SATTOROV

Navbatchilar –

Gulnoza TURG'UNBOYEVA
Radik TUMPAROV

Sahifalovchilar –

Zokir BOLTAYEV
Ilhom JUMANOV
Akbar BOLTAYEV

Fotomuxbirlar –

Abu KENJAYEV
Ikrom HASANOV

TELEFONLAR:

71-231-33-88;

Faks: 71-231-40-05.

**Obuna masalalari
bo'yicha:**

71-231-38-74;

97-420-89-24

Web-site: www.postda.uz

E-mail: info@postda.uz

ISSN 2010-5355



Tahririyat hisob raqami
h/r 23402000300100001010.

Bank kodi 00014.

O'zbekiston Respublikasi
Iqtisodiyot va moliya
vazirligi g'aznachiligi.

Shaxsiy h/v

470010860262877031101179001

STIR 200637499.

Tahririyatga kelgan qo'l-yozma va suratlar egasiga qaytarilmaydi.

Nashrimizdan ko'chirib bosilganda manba ko'rsatilishi shart.

Gazeta tahririyat kompyuter markazida terildi va sahifalandi.

«Kolorpak» MCHJ
bosmaxonasida chop etildi.
Korxona manzili: 100206
Yunusobod tumani,
Yangishahar ko'chasi 1^a-uy.

Gazeta O'zbekiston Respublikasi
Prezidenti Administratsiyasi
huzuridagi Axborot va ommaviy
kommunikatsiyalar agentligi
tomonidan 2020-yil 13-yanvarda
0120-raqam bilan ro'yxatga
olingan.

Buyurtma № 2597.

Bosilish – ofset usulida.

Bichimi – A3. Hajmi – 6 bosma
taboq. 45520 nusxada chop etildi.

Obuna raqamlari:

Yakka tartibda – 180.

Tashkilotlar uchun – 366.

Bosishga topshirish vaqti – 22.00.

Bosishga topshirildi – 21.00.

Sotuvda kelishilgan narxda.

MANZILIMIZ:

100070, Toshkent shahri,
Shota Rustaveli 1-berk
ko'chasi 9-uy.



www.postda.uz



t.me/postdarasmiy



www.facebook.com/postdauz



www.instagram.com/postda_uz